

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.Fil.41.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI**

TO‘LABOYEV OLIM OLTINOVICH

RAUF PARFI SHE’RIYATI POETIKASI

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti (XX asr o‘zbek adabiyoti va hozirgi adabiy jarayon)

**FILOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) ILMIY DARAJASINI OLISH
UCHUN YOZILGAN DISSERTATSIYA
AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2026

**Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiya avtoreferati
Mundarijasi**

Doctor of Philology (DSc) dissertation abstract table of contents

**Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc) по
филологическим наукам**

To‘laboyev Olim Oltinovich

Rauf Parfi she‘riyati poetikasi 3

Tulaboev Olim Oltinovich

Poetics of Rauf Parfi’s poetry.....

Тулабоев Олим Олтинович

Поэтика поэзии Рауфа Парфи.....

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

List of published works

Список опубликованных работ

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.Fil.41.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI**

TO‘LABOYEV OLIM OLTINOVICH

RAUF PARFI SHE’RIYATI POETIKASI

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti (XX asr o‘zbek adabiyoti va hozirgi adabiy jarayon)

**FILOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) ILMIY DARAJASINI OLISH UCHUN
YOZILGAN DISSERTATSIYA**

TOSHKENT – 2026

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.3.DSc/Fil1052 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume) Ilmiy kengashning veb sahifasida (www.tsuull.uz) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtiriladi.

Ilmiy maslahatchi:

Karimov Bahodir Nurmetovich,
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy taqrizchilar:

Jo‘raqulov Uzoq Haydarovich,
filologiya fanlari doktori, professor

Quronov Dilmurod Haydaraliyevich,
filologiya fanlari doktori, professor

Yo‘ldoshev Qozoqboy Boybekovich,
pedagogika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklor instituti

Dissertatsiya himoyasi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi DSc.03/2025.27.12.Fil.41.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil “_____” may soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-12-44 (www.tsuull.uz).

Dissertatsiya bilan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____-raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-12-44 (www.tsuull.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “_____” _____ kuni tarqatildi.
(2026-yil “_____” dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi)

Sh.S.Sirojiddinov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, filol.f.d., akademik

Q.U.Pardayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, filol.f.d., professor

N.A.Jabborov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filol.f.d., professor

KIRISH (Doktorlik (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda insonning insonday yashab qolishi uchun moddiy boyliklarning o‘rni qancha bo‘lsa, insoniyat tarixining uzoq qa‘ridan kelayotgan ma‘naviy zahiraning ahamiyati undan kam emas. Bu zaxirada insonning aqli, ruhiyati, ma‘naviyati darj etilgan. Chunki ularning namoyon bo‘lish shakli bu san‘atdir. Agar ijodkorda ezgulik, haqiqat, e‘tiqod mezonlari shakllangan bo‘lsa, u tomonidan yaratilgan yaratilqlar inson qalbini poklashga, tuyg‘ularini tarbiyalashga, ma‘naviyatini tozartishga, aqlini peshlashga va ruhoniy kamolotiga xizmat qiladi. San‘atning mana shunday vazifa bajaradigan turlaridan biri bu so‘z san‘ati, ya‘ni adabiyotdir.

Dunyoda so‘z san‘atining she‘riyat turi o‘zining musiqiyligi bilan qalbgaga yanada yaqin turadi. Agar u go‘zallik, haqiqat va iymon nuri bilan yo‘g‘rilgan bo‘lsa, insonni haqiqiy ma‘naviy-ruhiy kamolotga boshlaydi. Zero, haqiqiy ijodkorning vazifasi ham shundan iboratdir. Milliy adabiyotimizda bunday adiblar ko‘p. Rauf Parfi zamonaviy o‘zbek adabiyotining mana shunday shoirlaridan biri. U o‘z ijodi bilan millatning ma‘naviy-ruhiy yaxlitligiga, estetik zavqining kamolotiga, haqparvarlik va vatanparvarlik tuyg‘ularining shakllanishiga xizmat qilgan ijodkoridir. Bunga uning she‘rlari guvoh.

Mamlakatimizda haqiqiy ijodkor, qanchalik bekamu ko‘st bo‘lmasin, o‘zi yashagan zamonga, jamiyatga nisbatan muxolif fikr bilan yashaydi. Bu uning o‘sha jamiyatdan kir izlashidan emas, uning fitratida o‘zi bilan birga tug‘ilgan ideal jamiyat bilan real jamiyat orasidagi tafovut bilan bog‘liq. Birinchidan, uning estetik olamida o‘sha ideal jamiyat bo‘lmasa, u real jamiyatga munosabat bildirish olmaydi. Munosabat bildirish undan jasorat talab qiladi. Ikkinchidan, agar u ijodkor bo‘lsa, uning munosabati badiiyat talablari asosida bildiriladi, bu esa ijodkordan mahorat talab qiladi. Demak, ma‘lum bo‘ladiki, haqiqiy ijodkorda ham jasorat, ham mahorat jamlanishi lozim bo‘ladi. Ma‘lumki, san‘atning, jumladan, so‘z san‘atining ham, asosiy vazifasi o‘quvchiga haqiqatni aytishdan tashqari, unga estetik zavq bera bilishdir. Badiiy adabiyotning mana shunday estetik zavq beradigan jihati uning poetik jihati, albatta. Hamonki, “Adabiyot, san‘at va madaniyat yashasa, millat va xalq, butun insoniyat bezavol yashar”¹ ekan, bugungi yangilanayotgan adabiyot, ularda aks ettirilgan badiiy obrazlarning milliy an‘analarimizga bog‘liqligi, uning vazifasi va o‘rnini o‘rganish o‘zbek adabiyotshunosligi oldida turgan muhim hamda dolzarb muammolardandir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-fevraldagi PF-4958-son “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta‘limni yanada takomillashtirish to‘g‘risida”, 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2019-yil 21-oktyabr-dagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2017-yil 13-sentyabrdagi PQ-3271-son “Kitob mahsulotlarini nashr yetish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib

¹ Мирзиёев Ш.М. Адабиёт, санъат ва маданият яшаса, миллат ва халқ, бутун инсоният безавол яшайди // Халқ сўзи газетаси. – Тошкент, 2017. – № 153.

qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida", 2018-yil 5-apreldagi PQ-3652-son "O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-avgustdagi O'zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma'ruzasi, 2020-yil 20-mayda Toshkent shahridagi Adiblar xiyoboniga tashrifi chog'ida adabiyotning ta'sir kuchini oshirish bo'yicha topshiriqlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq ravishda bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi². Bugungi zamonaviy estetikada "poetika" so'zi ikki xil ma'no kasb etadi: 1) adabiyot qoidalari; 2) ijodkorning badiiy mahorati. Ikkinchi ma'nodagi "poetika" – adabiyotshunoslikning asosiy masalalaridan bo'lib, badiiy matnni badiiyat qoidalari asosida tadqiq etadi. Badiiyat esa badiiy adabiyotning bosh xususiyati. Shuning uchun ham "poetika" tushunchasi va uning estetik unsurlarini ko'rsatish, ularning individual ijodkor shaxsiyati, dunyoqarashi, muhiti, bilimi, estetik ideali, badiiy tili kabi omillarda namoyon bo'lib, poetik olamiga xos betakrorlikni ta'minlashi bilan bog'liq muammolarni ilmiy tadqiq yetish bo'yicha jahonning ko'plab yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalarida, jumladan, University of Indiana, University of Michigan, University Columbia (USA), Istanbul Universitesi, Ankara Universitesi (Turkie), Universitt Humboldt, Universitt Bonn, Universitt Frie (Germany), Ctraenl Asian Studies Instite, Parij University (France), Cambridge University (Greet Britain), Moskva davlat universiteti, Sankt-Peterburg davlat universiteti (Rossiya Federatsiyasi), O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, O'zbekiston Milliy universiteti, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti (O'zbekiston) filologlari tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Jahon adabiyotshunosligida she'rshunoslik sohasida XX asr lirikasining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashtirish, davrlashtirish, she'r shakli va mazmunida yuz bergan o'zgarishlar mohiyatini ko'rsatish, poetika hamda ijodiy individuallik masalalari singari ustuvor yo'nalishlarda ilmiy izlanishlar olib borilmoqdaki, o'zbek adabiyotshunosligi ham bu borada bir chetda qolib ketgan emas. Rauf Parfi

² Ushbu ilmiy muammoga oid quyidagi elektron manbalar e'tiborga loyiq: <https://arts.unimelb.edu.au/nceis>; <https://www.westernsydney.edu.au>; <https://slc.umd.edu/persian/about>; <http://nelc.uchicago.edu>; <https://nelc.osu.edu>; <http://ut.ac.ir>; <https://www.amu.ac.in>; <http://www.du.ac.in/du>; <http://www.istanbul.edu.tr/tr>; <http://gazi.edu.tr>; <https://www.ankara.edu.tr>; <https://www.orientalstudies.az/ru>; <http://literature.az/?lang=aze>; <http://www.kaznu.kz/ru>; www.iaas.msu.ru; <https://www.ivran.ru>; <https://spbu.ru>; www.orient.spbu.ru/ru; <http://www.orientalstudies.ru>; <http://oriental-studies.org.ua/uk/home>; <http://zoa.dmt.tj>; <http://iza.tj/ru/institutyazyka-literatury-vostokovedeniya-i-pismennogo-naslediya-im-rudaki>; <http://tashgiv.uz/ru>; <http://navoiy-uni.uz/uzk>; <http://www.samdu.uz>.

she'riyati poetikasi masalasi ham o'zbek adabiyotshunosligidagi mana shunday katta loyihaning ajralmas bir qismidir.

Rauf Parfi she'riyati poetikasi masalasi bugun xorijda ham qizg'in o'rganilmoqda. Masalan, Amerikalik olim Edvard Olvort, Turkiyadagi Niyde universitetining professori Hikmat Korash 2008-yilda shoir ijodi bo'yicha doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi va tadqiqotini "O'zbek shoiri Rauf Parfi" nomi bilan nashr ettirdi³. Shuningdek, turkiyalik fan doktori Husayn O'zboyning "Men olamdan o'tdim" degan maqolasi ham chop etildi⁴. "Turk adabiyoti" deb nomlangan nufuzli jurnalning to'liq bir soni Rauf Parfi ijodiga bag'ishlangan va unda turk hamda o'zbek olimlarining o'nga yaqin ilmiy maqolalari e'lon qilingan⁵.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Dunyo adabiyotshunosligida she'riyatni poetik nuqtayi nazardan tadqiq etishda juda katta tajriba bor. Bu tajribaning avvali mashhur Aristotelning "Poetika"sidan boshlangan. Asrlar o'tishi bilan she'rshunoslik degan bu fan rivojlanib, takomillashib bordi. Dunyo tillari va ayniqsa, rus tilida yaratilgan fundamental tadqiqotlar, darslik va lug'atlar jahon she'rshunosligini yangi bosqichga ko'tara oldi, deya olamiz. Bu borada G.Shengeli, V.Jirmunskiy, L.Timofeyev, B.Tomashevskiy, B.Eyxenbaum, L.Ginzburg, V.P.Grigorev, M.Polyakov, N.K.Gey, M.Xamrayev kabi ijodkor va olimlarning kitoblari⁶, V.D.Skvoznikov, L.I.Timofeyev, V.Ye.Xalizev, O.I.Fedotov, N.D.Tamarchenko singari adabiyotshunoslarning adabiyot nazariyasiga oid darsliklari va adabiy istilohlar sharhiga bag'ishlangan lug'at hamda ensiklopediyalar⁷ alohida ahamiyatga ega.

³ HIKMET KORAŞ. ÖZBEK ŞAIRİ RAUF PARFİ. – KONYA, Kömen Yayınevi, 2009. – 620 s.

⁴ HÜSAYIN ÖZBAY. "Men Alemden Ötdim" // Kardeş kalemler, Ocak, 2007. – S. 34-41.

⁵ Sobirova M., Babahanova D. Duygularının Şairi: Rauf Parfi // "Türk Edebiyatı" (Aylık Fikir ve Sanat Dergisi), Ekim 2022 / Sayı: 588. – S. 4-8; Kuranov Dilmurad. Rauf Parfi'nin Efsunlu Soneleri // "Türk Edebiyatı" (Aylık Fikir ve Sanat Dergisi), Ekim 2022 / Sayı: 588. – S. 9-15; Güzel Begim. Rauf Parfi'nin Şiirlerinde İsyanın Müziği // "Türk Edebiyatı" (Aylık Fikir ve Sanat Dergisi), Ekim 2022 / Sayı: 588. – S. 16-20; Alim Altunbek. Rauf Parfi Sonelerinin Kanonik Doğası // "Türk Edebiyatı" (Aylık Fikir ve Sanat Dergisi), Ekim 2022 / Sayı: 588. – S. 21-24; Laylo Şaripova. Aşkın Olağanüstü İfadesi // "Türk Edebiyatı" (Aylık Fikir ve Sanat Dergisi), Ekim 2022 / Sayı: 588. – S. 25-30; Ekber Sabirdinov. Rauf Parfi'nin Şiirlerinde Şekil ve Anlam Arayışı // "Türk Edebiyatı" (Aylık Fikir ve Sanat Dergisi), Ekim 2022 / Sayı: 588. – S. 31-35; Nurbay Cabbarov. Rauf Parfi'nin Şiirinde Millî Kurtuluş Gayesi // "Türk Edebiyatı" (Aylık Fikir ve Sanat Dergisi), Ekim 2022 / Sayı: 588. – S. 36-39; Sabit Avezov. Rauf Parfi'nin Eserlerinde Türkistan Kaygısı // "Türk Edebiyatı" (Aylık Fikir ve Sanat Dergisi), Ekim 2022 / Sayı: 588. – S. 40-43; Ümide Resulova. Bir Söz Sanatçısı Olan Rauf Parfi'nin İç Dünyası // "Türk Edebiyatı" (Aylık Fikir ve Sanat Dergisi), Ekim 2022 / Sayı: 588. – S. 44-48; Dilrabo Kuvvatova, Rahima Şaripova. Rauf Parfi'nin Şiirinde Doğa Sembollerinin Sanatsal Yorumu // "Türk Edebiyatı" (Aylık Fikir ve Sanat Dergisi), Ekim 2022 / Sayı: 588. – S. 49-54.

⁶ Шенгели Г. Техника стиха. – М.: СП, 1960; Жирмунский В.М. Теория стиха. – Л.: СП, 1975; Тимофеев Л. И. Слово в стихе. – М.: СП, 1987; Томашевский Б.В. Краткий курс поэтики. – М.: КДУ, 2006; Томашевский Б.В. Стилистика и стихосложение. – Л., 1959; Эйхенбаум Б.М. – Л.: СП, 1969; Гинзбург Л. О лирике. – М.-Л.: СП, 1964; Григорьев В.П. Поэтика слова. – М.: Наука, 1979; Поляков М. Вопросы поэтики и художественной семантики. – М.: СП, 1978; Гей Н.К. Художественность литературы. Поэтика. Стиль. – М.: Наука, 1975; Хамраев М. Пламя жизни. – Т.: Издательство литературы и искусства имени Гафура Гулама, 1988.

⁷ Сквозников В.Д. Лирика // Теория литературы. Роды и жанры литературы. – М.: Наука, 1964. – С. 173-237; Тимофеев Л.И. Лирика // Основы теории литературы. – М.: Просвещение, 1976. – С. 356-369; Хализев В.Е. Лирические произведения // Введение в литературоведение. Под редакцией Г.Н.Поспелова. – М.: Высшая школа, 1988. – С. 257-270; Хализев В.Е. Лирика // Теория литературы. – М.: Высшая школа, 1999. – С. 308-316; Федотов О.И. Лирика // Основы теории литературы. В двух частях. Часть 2. Стихосложение и литературный процесс. – М.: Владос, 2003. – С. 164-173; Тамарченко Н.Д. Лирика // Теория литературы. В двух томах. Под ред. Н.Д.Тамарченко. Том 1. – М.: АКДЕМІА, 2004. – С. 333-360; Литературный

Shuningdek, o‘zbek adabiyotshunosligida ham zamonaviy she‘r ilmiga oid qator tadqiqotlar, darslik va qo‘llanmalar hamda lug‘atlar yaratilganki, bular zamonaviy she‘rshunosligimizning muhim yutuqlari hisoblanadi. Bu borada, ayniqsa, I.Sulton, M.Qo‘shjonov, T.Boboyev, O.Sharafiddinov, U.To‘ychiyev, U.Normatov, A.Rasulov, S.Sodiq, I.G‘afurov, J.Kamol, M.Ibrohimov, B.Nazarov, B.Sarimsoqov, N.Rahimjonov, H.Mirhaydarov, I.Haqqul, S.Meli, D.Quronov, A.Sher, B.Karimov, N.Jabborov, A.Ulug‘ov, U.Hamdani kabi olimlarning tadqiqotlari alohida ahamiyatga ega⁸. E‘tiborni bevosita ilmiy tadqiqotimiz mavzusi bo‘lmish Rauf Parfi she‘riyatiga oid tadqiqotlar⁹, monografiyalar¹⁰, darsliklar¹¹ va ilmiy maqolalarga¹² qaratadigan bo‘lsak, bu borada ham mo‘l-ko‘l adabiyotlarga duch kelamiz.

энциклопедический словарь. – М.: Советская энциклопедия, 1987; Квятковский А.К. Поэтический словарь. – М., 1964; Словарь литературоведческих терминов. – М.: Просвещение, 1974.

⁸ Адабий турлар ва жанрлар. Уч жилдлик. 2-жилд. Лирика. – Т.: Фан, 1992. – 248 б.; Султон И. Адабиёт назарияси. – Т.: Ўқитувчи, 1980. – 392 б.; Бобоев Т. Шеър илми таълими. – Т.: Ўқитувчи, 1996. – 344 б.; Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Т.: Navoiy universiteti, 2018. – 480 б.; Шарафиддинов О. Ижодни англаш бахти. – Т.: ШАРҚ, 2004. – 640 б.; Норматов У. Ижод сеҳри. – Т.: ШАРҚ, 2007. – 352 б.; Расулов А. Бетакрор ўзлик. – Т.: MUMTOZ SO‘Z, 2009. – 288 б.; Солиқ С. Ижоднинг ўттиз лаҳзаси. – Т.: ШАРҚ, 2005. – 320 б.; Гафуров И. Мангу латофат. – Т.: ШАРҚ, 2008. – 464 б.; Иброҳимов М. Ўзбек совет поэзияси жанрларининг таркиб топиши (1917-1930 йиллар). – Т.: Фан, 1983. – 224 б.; Камол Ж. Сайланма. Олти жилдлик. Тўртинчи жилд. Шеър санъати. – Т.: Янги аср авлоди, 2022. – 448 б.; Саримсоқов Б. Бадиийлик асослари ва мезонлари. – Т.: BOOKMANY PRINT, 2022. – 252 б.; Назаров Б. Ижоднинг жон томири. – Т.: Tafakkur tomchilari, 2022. – 624 б.; Ҳаққул И. Шеърят – Руҳий муносабат. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1990. – 240 б.; Мели С. Сўзу сўз. – Т.: SHARQ, 2020. – 528 б.; Тўйчиев У. Ўзбек адабиётида бадиийлик мезонлари ва уларнинг маромлари. – Т.: Янги аср авлоди, 2011. – 512 б.; Мирҳайдаров Х., Мирҳайдарова Н. Бармоқ тизими таълими. – Т.: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2010. – 128 б.; Карим Б. Истиқлол адабиёти: назм ва наср. Монография. – Т.: Firdavs-shoh nashriyoti, 2021. – 146 б.; Жабборов Н. Замон. Мезон. Шеърят. – Т.: Гафур Ғулом, 2015. – 304 б.; Шер А. Гўзаллик ёғдуси. – Т.: Файласуфлар, 2017. – 224 б.; Улуғов А. Қалб қандили. – Т.: Akademnashr, 2013. – 288 б.; Ҳамдам У. Янги ўзбек шеърятини. – Т.: ADIB, 2012. – 304 б.; Ҳотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли лугати. – Т.: Ўқитувчи, 1979. – 376 б.; Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик лугати. – Т.: Akademhashr, 2010. – Б. 400.

⁹ Акрамов Б. Ҳозирги ўзбек лирикасида поэтик образ муаммоси. Филол. фан. д-ри ... дисс. – Т., 1991. – 258 б.; Норбоев Б.Ж. Ҳаётни поэтик талқин этиш таомиллари ва маҳорат муаммолари (60-80-йиллар ўзбек лирикаси мисолида). Филол. фан. д-ри ... дисс. – Т., 1996. – 256 б.; Жумабоева Ж. XX аср ўзбек шеърятинида психологик тасвир маҳорати. Филол. фан. д-ри ... дисс. – Т., 2000. – 254 б.; Қосимов Я. Ўзбек шеърятинида поэтик фикрнинг янгиланиш жараёни. Филол. фан. номз. ... дисс. – Т., 1998. – 156 б.; Ҳамдам У.А. XX аср ўзбек шеърятини бадиий тафаккур тадрижининг ижтимоий-психологик хусусиятлари. Филол. фан. д-ри ... дисс. автореф. – Т., 2017. – 70 б.; Аҳмедов Х.Х. Ўзбек адабиётида насрий шеър. Филол. фан. номз. ... дисс. – Т., 1995. – 150 б.; Ражабов Д.З. Бадиий образ ва ритмнинг ўзаро муносабати (70-80 йиллар ўзбек шеърятини мисолида). Филол. фан. номз. ... дисс. – Бухоро, 1998. – 150 б.; Қурбонбоев И.А. 90-йиллар шеърятинида образлилик. Филол. фан. номз. ... дисс. – Т., 2005. – 152 б.; Маматова А.Н. Ўзбек адабиётида сарбаст шеърнинг шаклланиши ва унинг бадиий-эстетик хусусиятлари. Филол. фан. номз. дисс. – Т., 2000. – 156 б.; Раҳмонова С.Р. Ўзбек сонетлари: поэтик структура ва бадиий образ. Филол. фан. номз. ... дисс. – Т., 2010. – 154 б.; Саидганиева Г.Ш. Истиқлол даври лирикасида строфика ва ритмнинг поэтик образ яратишдаги ўрни. Филол. фан. номз. дисс. – Т., 2011. – 152 б.; Фазлиддинов Б.Қ. XX аср ўзбек фалсафий-интеллектуал шеърятини (Гафур Ғулом, Асқад Мухтор ва Рауф Парфи ижоди мисолида). Филол. фан. б. фалс. док. ... дисс. автореф. – Т., 2019. – 54 б.; Дедаханова М.А. Модерн шеърятда маъно кўчишининг лингвокогнитив аспекти (Рауф Парфи ижоди мисолида). Филол. фан. б. фалс. док. ... дисс. автореф. – Т., 2021. – 60 б.; Matyoqubova G.R. Rauf Parfi asarlari qo‘lyozmalarining matniy-qiyosiy tadqiqi. Filol. fan. b. fals. dokt. ... diss. – Т., 2024. – 170 б.

¹⁰ Акрам Б. Юрак кирралари (Рауф Парфининг ижод олами). – Т.: Ziljl buloq, 2020. – 160 б.; Ғаниев И. Рауф Парфи Ўзтүрк дунёси. – Т.: Мухаррир, 2021. – 732 б.; Улуғов А. Рауф Парфи – ҳассос шоир. – Т.: Мухаррир, 2024. – 392 б.; Рауф Парфи замондошлари хотирасида. – Т.: ADABIYOT, 2023. – 338 б.

¹¹ Каримов Н. Рауф Парфи // XX аср ўзбек адабиёти тарихи. Дарслик. – Т.: Ўқитувчи, 1999. – Б. 512-528; Sodiq S. Yangi o‘zbek adabiyoti tarixi. Darslik. – Т.: O‘QITUVCHI, 2019. – Б. 680-697; Yo‘ldoshev Q. Rauf Parfi

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Tadqiqot Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti ilmiy-tadqiqot rejasiga muvofiq "Hozirgi adabiy jarayon va poetika masalalari" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Rauf Parfining XX asr o'zbek adabiyotidagi o'rni, shoir she'riyatining mavzular ko'lami, poetik mahorati, badiiy kashfiyotlarini she'rlari misolida ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

shoir Rauf Parfining ilmiy biografiyasini yaratish va uning ijodkor sifatida shakllanishida xizmat qilgan omillarni aniqlash;

Rauf Parfi ijodining mavzular ko'lamini o'rganish va adabiy-estetik qarashlari va jahon adabiyotining shoir ijodiga ta'siri masalalarini ilmiy asoslash;

shoir ijodidagi she'riy janrlar va ularning poetik xususiyatlarini ochib berish;

sarbast, erkin va nasriy she'r kabi she'riy shakllarning hamda Rauf Parfi qo'llagan poetik vositalarning shoir ijodidagi o'rni va o'ziga xosligini aniqlash;

she'r poetikaning muhim xususiyatlaridan bo'lgan vazn va badiiy tasvir vositalari yordamida shoir poetik mahoratini ko'rsatib berish.

Tadqiqotning obykti sifatida shoir Rauf Parfining "Sabr daraxti" (1986), "Sakina" (2013) va ikki jildlik "Saylanma" (2022) sidan foydalanildi.

O'zturk // N.Karimov, B.Nazarov, U.Normatov, Q.Yo'ldoshev. ADABIYOT. 11-sihf uchun darslik. – T.: O'QITUVCHI, 2004. – B. 337-355; Karim B. Rauf Parfi // Boqijon To'xliyev, Bahodir Karim, Komila Usmonova. ADABIYOT. 11-sinf uchun darslik-majmua. – B. 80-86.

¹² Мухтор А. Шеър – шоирнинг ижтимоий виждони // "Шеър – шоир виждони. – Т.: MUMTOZ SO'Z, 2011. – Б. 156-166; Шукрулло. Халқ юкини кўтарган шоир // Бухоро мавжлари, 2015. 4-сон; Қаюмов А. Халқ ёдида шундай қолади // Адабиёт газетаси, 2023. 25-сентябр (19-20); Назаров Б. Янгича фикрлаш муждалари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 1988. 2-сон; Раҳимжонов Н. Маҳорат кирралари // Давр ва ўзбек лирикаси. – Т.: Фан, 1979. – Б. 110-155; Yana o'sha muallif. Бадий дид ва эстетик савия // Бадийят – бош мезон. – Т.: Akademnashr, 2016. – Б. 167-178; Yana o'sha muallif. "Дарё мавжларига ёзилмиш ғазал..." // Жаҳон адабиёти. – Т., 2011. 11-сон; Ғафуров И. Олтин шафтолилар // Ёшлик. – Т., 1984. 3-сон; Аваз Ч. Изланиш излари // Яшил сўқмоқ. Сайланма. – Т.: SHARQ, 2020. – Б. 313-331; Yana o'sha muallif. Рухиятни покровчи шеърият // Яшил сўқмоқ. Сайланма. – Т.: SHARQ, 2020. – Б. 331-364; Ҳаққул И. Ўлмас ва унитилмас шоир // Ҳаёт, адабиёт ва абадият. – Т.: Тафаккур, 2019. – Б. 252-260; Yana o'sha muallif. Англаш ва ҳис этиш санъати // Катта йўл бошида. – Т.: Ёш гвардия, 1987. – Б. 7-26; Азим У. Рауф Парфи. Эссе // Жаннатмакон. – Т., 2012. 3-сон; Акрамов Б. Моҳият ва руҳият образлари // Шарқ юлдузи. – Т., 1987. 9-сон; Yana o'sha muallif. Рухият мусаввири // Шарқ юлдузи. – Т., 1994. 1-2-қўшма сонлар; Шукуров Н. Шеъриятда гражданлик руҳи // Шарқ юлдузи. – Т., 1976. 5-сон; Баҳриддин А. Рауф Парфи: "Мен куйиниб сўзлайман, холос..." // Жаннатмакон. – Т., 2007. 6-сон; Йўлдошев Қ. Рауф Парфи // Ёник сўз. – Т.: Янги аср авлоди, 2006. – Б. 368-385; Малик Т. Муқаддас шеърият лашкари // Ёзувчининг бахти ва бахтсизлиги. – Т.: Sharq-ziyo-zakovat, 2017. – Б. 266-287; Қосим Я. Рауф Парфи ва ҳозирги ўзбек шеърияти // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 2024. 5-сон. – Б. 21-26; G'aniyev I. Kim u fikr sochayotgan olamga? / "Zamonaviy she'riyatni o'rganishning dolzarb masalalari" mavzusidagi Rauf Parfi tavalludining 80 yilligiga bag'ishlangan konferensiya. – Т.: FAN, 2023. – B. 120-135; Ҳамдамов У. Тадриж // Бадий тафаккур тадрижи. – Т.: Янги аср авлоди, 2002. – Б. 144-149; Эшонкул Н. Рауф Парфи нигоҳи // МЕНдан "МЕН"гача. – Т.: Akademnashr, 2014. – Б. 425-433; Мирзаев Ҳ. Ўзбек шеъриятида сонетлар туркуми // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 2007. 1-сон; Мирзо М. Шоир // Райҳон иси. – Т.: Янги аср авлоди, 2011. – Б. 151-165; Раҳмат Р. Жаннат соғинчи // Адабиётдан чиқиш. – Т.: Akademnashr, 2015. – Б. 31-41; Ulug'ov A. Hassos shoir / "Zamonaviy she'riyatni o'rganishning dolzarb masalalari" mavzusidagi Rauf Parfi tavalludining 80 yilligiga bag'ishlangan konferensiya. – Т.: FAN, 2023. – B. 51-79; Фазлиддин Б. Сўз салтанати // XX аср ўзбек адабиёти масалалари. – Т.: Фан, 2012. – Б. 215-225; Вафо Файзуллох. Мен сувман ҳали ҳеч ким ичмаган // Ҳақ ва ҳақиқат ҳаёли. – Т.: Мухаррир, 2022. – Б. 233-247; Файзуллаева О. Рауф Парфи ижодида сонет // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 2007. 4-сон; Чоршаъм. "Хотира дафтарим"дан // Бухоро мавжлари, 2015. 4-сон.

Tadqiqotning predmetini Rauf Parfi she'rlarining mavzular ko'lami, ularning janrlari, poetik shakllari, she'rlarda qo'llanilgan vazn va poetik usullar talqini tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda analitik, qiyosiy-tipologik, biografik, sotsiologik, psixologik, germenevtik va struktural tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Rauf Parfining tarjimai holiga oid ma'lumotlar va she'riyatidagi biografik unsurlarni parallel tekshirish natijasida shoir ilmiy biografiyasi yaratilib, uning ijodkor sifatida shakllanishida xizmat qilgan omillar aniqlangan va zamon, ijodkor, she'riyat kesimida uning o'zi yashagan davrga munosabati dalillangan;

shoir ijodining mavzular ko'lami aniqlangan va bugunga qadar adabiyotshunoslik e'tiboridan chetda qolib kelayotgan Turkiston birligi g'oyasi bilan bog'liq she'rlari hamda o'z yurtidan quvg'inga uchragan qirimlilar fojeasi haqidagi "Qirim xayollari" turkumi asarining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari ilmiy asoslangan;

Rauf Parfining adabiy-estetik qarashlarini asoslash orqali uning ijodiy konsepsiyasi aniqlangan va ushbu konsepsiyaning shakllanishiga xizmat qilgan jahon hamda milliy adabiyotning ta'siri masalalari isbotlangan;

shoir o'z ijodiy faoliyati davomida foydalangan she'riy janrlar aniqlangan va Rauf Parfi tomonidan o'zbek she'riyatiga ilk marotaba olib kirilgan poetik janrlar va she'riy shakllar tekshirilib, ularning o'ziga xos badiiy xususiyatlari misollar bilan dalillangan;

sarbast, erkin va nasriy she'r kabi she'riy shakllarning Rauf Parfi ijodidagi o'rni aniqlangan, ularning poetik nuqtai nazaridan bir-biriga o'xshash, farqli va o'ziga xos jihatlari isbotlanib, Rauf Parfi o'z she'rlarida istifoda etgan vazn turlari va ularning poetik xossalari hamda shoir qo'llagan badiiy tasvir vositalari yordamida shoirning poetik mahorati ochib berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo'yilgani, qo'llanilgan ilmiy usullar va nazariy ma'lumotlarni berishda aniq ilmiy manbalarga tayanilgani, tahlilga tortilgan materiallarning ilmiy metodlar vositasida asoslangani, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani, adabiyotshunoslikning zamonaviy ilmiy konsepsiyalari asosida tahlil va talqin qilingani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati adabiyotshunoslikning muhim jihati bo'lgan ijodkorning badiiy mahoratini, she'r poetikasi masalalarini o'rganish va o'rgatishda, zamonaviy o'zbek she'riyati va ayniqsa, Rauf Parfi ijodi ustida ilmiy tadqiqotlar olib borishda ahamiyatligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishdagi amaliy tavsiyalar, ilmiy natijalar, muayyan xulosalar bundan keyin Rauf Parfi ijodi va she'r poetikasi muammolari doirasida amalga oshiriladigan tadqiqotlar uchun asos bo'lishi, ilmiy xulosalar darslik va o'quv qo'llanmalar yaratishda ilmiy-nazariy manba sifatida xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Rauf Parfi she'riyati poetikasi tadqiqi bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Rauf Parfining tarjimai holiga oid ma'lumotlar va she'riyatidagi biografik unsurlarni parallel tadqiq etish natijasida shoir ilmiy biografiyasi yaratilgani, uning ijodkor sifatida shakllanishida xizmat qilgan omillar o'rganilgani va zamon, ijodkor, she'riyat kesimida uning o'zi yashagan davrga munosabati belgilanganiga oid xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2021-2023-yillarda bajarilgan PF-201912258-raqamli "O'zbek adabiyotining ko'p tili (o'zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish" mavzusidagi amaliy loyihani bajarishda foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2026-yil 23-yanvardagi № 04/1-354-sonli ma'lumotnomasi). Natijada Rauf Parfining tarjimai holiga oid ma'lumotlar va she'riyatidagi biografik unsurlar tahliliga oid yangi ilmiy materiallar bilan boyitilgan;

shoir ijodining mavzular ko'lami aniqlangani va bugunga qadar adabiyotshunoslik e'tiboridan chetda qolib kelayotgan Turkiston birligi g'oyasi bilan bog'liq she'rlari hamda o'z yurtidan quvg'inga uchragan qirimlilar fojeasi haqidagi "Qirim xayollari" turkumi tadqiq etilganiga doir xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2021-2023-yillarga mo'ljallangan IL-402104474 raqamli "Bolalar abiyoti.uz" elektron platforma va uning mobil ilovasini yaratish" nomli loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2026-yil 23-yanvardagi № 04/1-355-sonli ma'lumotnomasi). Natijada elektron platforma shoir ijodining mavzular ko'lami aniqlanganiga oid materiallar va Rauf Parfining yangi she'rlari bilan boyishiga xizmat qilgan;

Rauf Parfining adabiy-estetik qarashlarini tadqiq etish orqali uning ijodiy konsepsiyasi o'rganildgani va ushbu konsepsiyaning shakllanishiga xizmat qilgan jahon hamda milliy adabiyotning ta'siri masalalari asoslanganiga doir xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2021-2023-yillarda bajarilgan PF-201912258-raqamli O'zbek adabiyotining ko'p tili (o'zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish" nomli loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2026-yil 23-yanvardagi № 04/1-354-sonli ma'lumotnomasi). Natijada loyiha Rauf Parfining adabiy-estetik qarashlarini tadqiq etish orqali uning ijodiy konsepsiyasi o'rganildgani va ushbu konsepsiyaning shakllanishiga doir yangi ilmiy xulosalar bilan boyishiga erishilgan;

shoir o'z ijodiy faoliyati davomida foydalangan she'riy janrlar aniqlangani va Rauf Parfi tomonidan o'zbek she'riyatiga ilk marotaba olib kirilgan poetik janrlar va she'riy shakllar o'rganilib, ularning o'ziga xos badiiy xususiyatlari misollar bilan dalillanganiga oid xulosalardan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2024-yil 4-yanvarda tasdiqlangan "Ma'naviyat-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirish

bo'yicha chora-tadbirlar dasturi"ning VII yo'nalishida belgilangan "Uzluksiz ta'lim tizimida ma'naviy komillikka erishish va ma'rifatli yoshlarni tarbiyalashga doir chora-tadbirlar" yo'nalishi doirasidagi 53-band ijrosini bajarishda foydalanilgan (Respublika ma-naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi ijtimoy-ma'naviy tadqiqotlar markazining 2026-yil 22-yanvardagi 10/58-sonli ma'lumotnomasi). Natijada ilmiy takliflar, xulosalar va amaliy tavsiyalar Rauf Parfining XX asr o'zbek adabiyotidagi o'rni, uning poetik mahorati, badiiy tafakkuri va adabiy kashfiyotlarini keng jamoatchilikka yetkazish, shuningdek, ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot jarayonlarining mazmunini boyitishga yordam bergan;

sarbast, erkin va nasriy she'r kabi she'riy shakllarning Rauf Parfi ijodidagi o'rni aniqlangani, ularning poetik nuqtai nazaridan bir-biriga o'xshash, farqli va o'ziga xos jihatlari isbotlangani, Rauf Parfi o'z she'rlarida istifoda etgan vazn turlari va ularning poetik xossalari aniqlangani hamda shoir qo'llagan badiiy tasvir vositalari yordamida shoirning poetik mahorati, usta san'atkor sifatidagi kashfiyotlari ko'rsatib berilganiga doir xulosalardan "O'zbekiston tarixi" telekanalida efirga uzatilgan "Vaqt mashinasi" ko'rsatuvi ssenariysini yozishda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "Ma'rifat" ijodiy birlashmasi" davlat muassasasi tarkibidagi "O'zbekiston tarixi" telekanalining 2026-yil 21-yanvardagi 15-33/57-sonli ma'lumotnomasi). Natijada talatomoshabinlarning Rauf Parfining hayoti va ijodi, yangi e'lon qilinmagan she'rlari haqidagi bilimlari yanada boyishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobat siyasi. Tadqiqot natijalari 7 ta respublika, 3 xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarning e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 1 ta monografiya, 25 ta maqola e'lon qilingan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 15 ta maqola, jumladan, 11 tasi respublika hamda 4 tasi xorijdagi ilmiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, har biri ikkitadan faslni o'z ichiga olgan olti bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy hajmi 243 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustivor yo'nalishlariga mosligi, xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmeti, tadqiqot usullari, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy etilishi, aprobat siyasi, e'lon qilingan ishlar va tadqiqot tuzilishi ko'rsatilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Rauf Parfining hayot va ijod yo'li**" deb nomlanadi. Bobning asosiy maqsadi turli manbalarda kelgan shoirning hayotiga oid ma'lumotlarni uning she'rlarida uchraydigan hasbi hollari bilan parallel o'rganish nitijasida Rauf Parfining ilmiy biografiasini yaratish. "**Shaxs va shoir sifatida shakllanishi**" deb nomlangan dastlabki faslida shoirning oilaviy muhiti,

bolalik, o'smirlik, talabalik va katta hayotga qadam bosgan ilk davri qalamga olingan. Shuningdek, bu davr Rauf Parfi ijodining dastlabki bosqichini ham o'z ichiga oladi.

Shoirning otasi Parfi Muhammadamin Norquchoq va onasi Sakina Isomuhammad qizi asli Farg'onaning Vodilidan bo'lib, kolxozlashtirish yillari Toshkent viloyati Yangiyo'l tumaniga kelib qolishgan. Asli ismi Tursunboy bo'lgan shoirimiz Rauf Parfi mana shu Yangiyo'l tumaniga qarashli Sho'ralisoy qishlog'ida tug'ilib, voyaga yetgan. Darvoqe, shoirning aynan shu tug'ilgan yili bilan chalkashliklar bor. Biz ushbu faslda shu masalaga ham aniqlik kiritishga harakat qildik.

Rauf Parfi ilk marotaba "Tasvir" (1973) kitobiga kiritgan "Eng uzoq yozilgan tarjimai holim" she'rida "*Tavalludim: 40...*" degan edi. Oradan o'n sakkiz yil o'tib, ya'ni 1991-yili ("Yoshlik", 9-son) shoir ushbu she'rni qayta nashr ettirib, yuqoridagi misraga shunday o'zgartish kiritdi: "*Tavalludim: qirq uch, mezonning yigirma yettisi...*". Aynan shu jurnalning 1993-yil 1-sonida bosilgan "Tarjimai holim"da ham yana shu sana – 1943 takrorlanadi. Mana shu ma'lumotlardan boshlab shoirning tavallud sanasi "1943" bo'lib qoldi. To'g'ri, bu ma'lumotlarni kerakli nashrlarga Rauf Parfining o'zi bergan. Lekin u tug'ilgan sana masalasidagi o'zgarma va haq gapni she'rlarida aytib ketadi. Biz bir nechta she'rlariga asoslanib, shoirni tavallud sanasi 1940-yil degan xulosaga keldik. Mana, fikrimizga asos bo'lgan o'sha she'rlar:

1. Rauf Parfining "Meni ta'qib qilar shoir degan nom..." deb boshlanuvchi she'rida: "*Ay sen, ay, oltmishini tepgan yosh shoir*" misrasiga duch kelamiz. She'r tagida "25. 09. 2000" sanasi qo'yilgan. Ostida "2001" sanasi qo'yilgan "Hazil" she'rini esa: "*Biz-chi, biz ne qildik, biqsib, olayib? / Oltmishga ham kirib chiqdik lallayib*", so'zlari bilan yakunlaydi. Ko'rinib turibdiki, shoir o'zini 2000-yilda oltmishga kirib, 2001-yilda bu yoshdan chiqqan hisoblamoqda.

2. Rauf Parfi 1965-yilda yozgan ikkita she'rida o'sha yili necha yoshda ekanligini aytib o'tadi. Birinchisi, "Abdullajon marsiyasi". Shoir unda: "*Yigirma besh yoshdaman men ham*"¹³, desa, aynan shu yili yozilgan yana bir she'rini: *Cheksiz-cheksiz / daqiqalardan iboratdir / mening chorak asrlik umrim*,¹⁴ deb boshlaydi. "Chorak" – yuzning to'rt dan biri, ya'ni yigirma besh. Bulardan ma'lum bo'ladi, Rauf Parfi 1965-yilda yigirma besh yoshda ekan.

3. Shoirning 14-raqamli daftarida kuyidagi misralarga duch kelamiz: "*O'n sakkiz yosh – parcha hayot. Varaqlanar o'n sakkiz yosh, Bir kitob singari boshdan*"¹⁵. Bor-yo'g'i yetti misradan iborat ushbu "o'n sakkiz yosh" jumlasini to'rt marta takrorlangan. She'r tagida esa "1958" sanasi qo'yilgan.

4. 1-daftarning 6-betida esa shunday muhim bir she'rga duch kelamiz: *Kelajagim o'ylayman, / Yetti sinf bitirdim-ku. / Xayollarga botaman... / Dirijorlik yaxshi-ku...*¹⁶ Uch banddan iborat ushbu she'rning yozilish sanasi ko'rsatilmagan.

¹³ Рауф Парфи. Сайланма. Икки жилдлик, биринчи жилд. – Т.: Muharrir, 2022. – Б. 167.

¹⁴ O'sha kitob. – В. 177.

¹⁵ Рауф Парфи. Сайланма. Икки жилдлик, биринчи жилд. – Т.: Muharrir, 2022. – Б. 30.

¹⁶ Чоршамъ Рўзиевда сақланаётган Рауф Парфи архиви. 1-дафтар, 6-бет.

Lekin ushbu daftarga 1954-yil yozish boshlangan. Shoirning bergan tartibiga ko'ra bu 4-raqamli she'r. Demak, ma'lum bo'ladiki, "Kelajagim o'ylayman..." deb boshlangan she'r 1954-yilda yozilgan bo'lib, qalbi kelajak orzulariga to'la Tursunali shu yili "yetti sinf bitir"gan. Bu uning 1947-yili – yetti yoshida maktab borganiga guvohlik beradi. Agar u 1943-yil tug'ilganida edi, yetti emas, to'rt yoshida maktab borgan bo'lar edi. Bu esa hech bir jihatdan mantiqqa sig'maydi.

Xullas, Rauf Parfining she'rlariga quloq tutadigan bo'lsak, uning tug'ilgan sanasi 1940-yil ekanligi ma'lum bo'ladi. Bu fikrni shoirni yoshlik yillaridan tanigan yaqinlari ham tasdiqlaydi.

Rauf Parfi she'r yozishni erta boshladi. Shoir o'zining "Tarjimai hol"ida uning sanasini "53. 5 mart" deb ko'rsatadi. Rauf Parfining ilk uslubiy izlanishlari ham 50-yillar so'ngiga borib taqaladi. Shoirning "Men shod bo'lsam...", "Nozli shabboda jo'shar...", "She'rim befusun" kabi mashqlari fikrimizga dalil. Shu yillardan boshlab yosh Tursunali she'riy turkumlar ham bita boshladi.

1959-yil Tursunali SAGU ("O'rta Osiyo davlat universiteti" so'zlarining ruscha qisqartmasi, keyinchalik ToshDU va hozirda O'zbekiston Milliy universiteti)ning sharqshunoslik fakultetiga hujjat topshiradi. Lekin qishloq maktabida chet tili o'qitilmagani bois, bo'lajak shoir fransuz tili imtihonidan o'tolmaydi. 1960-yilda esa yosh shoir mazkur universitetning o'zbek filologiyasi fakultetiga o'qishga kirdi. Talabalik yillari uning uchun ham shaxs, ham shoir sifatida shakllanish yillari bo'ldi.

1965-yil Rauf Parfi ToshDU ni bitirdi, lekin "Markscha-lenincha falsafa" fanidan davlat imtihonini topshira olmagan bois unga oliy ma'lumotli diplom berilmadi. Natijada shoir tayinli bir tashkilotga ishga kira olmadi. Rauf Parfining "Hujjat" (1965) she'ri faqat qog'ozga asoslangan o'sha jamiyat ustidan isyon edi. Shu yili shoir o'zining birinchi she'riy to'plamiga tartib berdi. Uning nomi "Erk" edi. Kitob qo'lyozmasi nashriyotda yo'qoldi.

Rauf Parfi 1966-yilda shoir Shukrulloning ko'magi bilan Aziz Qayumov raislik qilayotgan O'zbekiston kinomotografiyasi davlat qo'mitasiga ishga kiradi. Shoir bu tashkilotda besh yil ishlaydi va unga Chilonzor Oqtepasidan kvartira beriladi. Rauf Parfining o'g'li Shuhrat (1968) hamda qizi Muqaddas (1970) aynan shu uyda dunyoga kelishgan.

Bobining ikkinchi fasli "**Ijodiy kamolot yo'lida**" deb nomlangan. 60-yillarning ikkinchi yarmiga kelib, Rauf Parfi ijodi adabiy jamoatchilikning e'tiborini torta boshladi. Bularning dastlabkisi shoir Asqad Muxtorning "oq yo'l"i bo'ldi. Shundan keyin Rauf Parfining she'riy kitoblari birin-ketin chiqa boshladi. 1969 da "Karvon yo'li" nashrdan chiqqan bo'lsa, 1970 da "Aks sado" chop etildi. Bu kitoblarni tanqidchilik iliq kutib oldi. "Sharq yulduzi" jurnalining 1970-yil 2-sonida Q.Kenjaboevning "Ruhiyat suvratlari" deb nomlangan taqrizi bosilgan bo'lsa, shu jurnalning 1971-yil 6-sonida shoirning "Aks sado" to'plamiga N.Xolliyevning "Izlanish yo'llarida" maqolasi e'lon qilindi. Garchi bulardan keyin shoirning "Tasvir" (1973), "Xotirot" (1975), "Ko'zlar" (1977) kitoblari chop etilgan bo'lsa-da, uning ijodida chinakam burilish 80-yillarning boshidan boshlandi. 1981-yildan Rauf Parfi ijodida ijtimoiy-siyosiy ruh kuchaydi. Shoirning "Turkiston yodi", "Muktibodh duosi", "Aleksandr Blok", "Lutfixonim. "Uyg'on,

bolam”, “Qadimgi turkulardan”, “Vatan” kabi she’rlari shunday deyishimizga asos bo’ladi.

1982-yil Rauf Parfi Boltiqbo‘yi respublikalarida safarda bo’ladi. Latviyada turib Litva va Estoniya respublikalariga ham borib keladi. Juda ko‘p she’rlari va suhbatlar tarjima etilib, ularning gazeta va jurnallarida bosiladi. Hatto “Qaytish” kitobi shoira va mutarjim Li Seppel tomonidan eston tiliga tarjima etilib, keyinchalik Estoniyada kitob holida chop etiladi¹⁷. Bu Boltiqbo‘yi safari Rauf Parfining she’riyati barobarida, shaxsiyatiga ham iz qoldirdi. Shoir Boltiqbo‘yidan “Latoniya” nomli bir she’riy turkum bilan qaytdi.

80-yillarning ikkinchi yarmiga kelib Rauf Parfi siyosiy-ijtimoiy hayotda ancha faollashdi. Shoir millat manfaati ko‘zlab tashkil etilgan xalq harakatlariga a‘zo bo‘ldi. Turli xil muammolar ko‘tarib chiqilgan mitinglarda ishtirok etdi, ba’zilarida nutq so‘zlad, she’rlar o‘qidi.

1990-yil Rauf Parfi bisotida birgina she’r bor. Uch banddan iborat bu she’r quyidagi misralar bilan boshlanadi:

So‘nmas ruhimizda matonat aslo,

Ajdodlar sharafi abadiy yashar.

Mukarram ziyosan, ey turkiy Dunyo,

Qo‘llagil, Allohim, qo‘llagil, Bashar.

So‘nmas ruhimizda matonat aslo¹⁸.

Ikkinchi bandning misralardan birida “Yolg‘iz panohimiz, chorlar Istiqlol”, deydi shoir. Demak, bu she’r milliy Mustaqillik haqida. Lekin u Mustaqillik bayrami sifatida e‘lon qilingan 1991-yil 1-sentyabrdan emas, Mustaqillik Deklaratsiyasi qabul qilingan 1990-yilning 20-iyunidan keyin yozilgan¹⁹.

1995-yilda yana o‘sha Turkiyaning Bursasida turkiy xalqlarga mansub shoirlarning navbatdagi anjumani bo‘ladi. Anjumanda diniy ruhdagi munajatlar tanlovi e‘lon qilingan edi. Rauf Parfi o‘zining “Munajat” (“Tavba”) she’ri bilan birinchi o‘ringa loyiq topiladi. Lekin pasporti yo‘qolgani uchun shoirning o‘zi anjumanda ishtirok eta olmagan, uning she’rini shogirdi To‘ra Mirzo anjuman hay‘atiga taqdim etgan edi²⁰.

1997-1999-yillarda Rauf Parfi “Jahon adabiyoti” jurnalida she’riyat bo‘limining yetakchi muharriri lavozimida ishladi. Jahon adabiyoti namunalaridan o‘zi ham bir qator tarjimalar e‘lon qildi, shuning barobarida, boshqalarni ham bu ishga da‘vat etdi.

Rauf Parfi hayotining so‘nggi ikki yilida barakali ijod qildi. Shoirning “Yo‘lovchi”, “U dunyoga, onamga maktub”, “Shuursiz she’r tajribalari”,

¹⁷ Rauf Parfi. Sonaarataja. – Tallin: EESTI RAAMAT, 1887.

¹⁸ Рауф Парфи. Сайланма. Икки жилдлик, биринчи жилд. – Т.: Muharrir, 2022. – Б. 326.

¹⁹ Мустақиллик Декларатсияси ҳақида қаранг: Қаҳрамон Ражабов. Ўзбекистон XX асрда. Икки жилдлик, иккинчи жилд (1939-2000). – Т.: ФАН, 2024. – Б. 466-481.

²⁰ Мустақиллик Декларатсияси ҳақида қаранг: Қаҳрамон Ражабов. Ўзбекистон XX асрда. Икки жилдлик, иккинчи жилд (1939-2000). – Т.: ФАН, 2024. – Б. 466-481.

“Siyovush”, “Tuhmat – 1985”, “Toshtemir Qahramon o‘g‘li she‘rlaridan”, “Thakurning oxirgi she‘ri”, “Alaniya” kabi turkumlari va bir qator sonetlari aynan shu – XXI asr bo‘lag‘asida dunyoga keldi. Shoir so‘nggi she‘rlaridan birida: “Men sizga bir dunyo dunyo qoldirdim, Men sizga qoldirdim qonli she‘rimni”²¹, degan edi. Darhaqiqat, o‘zidan keyin yuzlab she‘rlar, yigirmaga yaqin hikoya, bir qator adabiy maqola va suhbatlar qoldirdi.

Rauf Parfi 2005-yilning 28-martida dunyodan o‘tdi. Toshkent shahridagi “Minor” qabristonida dafn etildi. Uning safdoshlaridan biri Miraziz A‘zam shoir vafotidan keyin yozilgan maqolasida “Shaxsan men uni o‘zbek she‘riyatining ornomusi deb bilaman. Va u jahonning istagan burchagida jahonshumul shoirlar davrasida tippa-tik tura oladigan shoirimiz edi”²², deyishi bilan naqadar haq edi. Rauf Parfi betakror she‘riyati uchun 1991-yil Xalqaro Mahmud Koshg‘ariy, 1992-yil Xalqaro “Nilufar” va 1999-yil O‘zbekiston Xalq shoiri mukofotlari, 2025-yilda esa “Fidokorona xizmatlari uchun” ordeni bilan taqdirlandi. Shoir Rauf Parfi zamonaviy adabiyotimizga, millatimizning ruhiy-ma‘naviy yuksalishi yo‘lida qilgan xizmatlari bilan ushbu mukofotlarga munosib edi.

“**Rauf Parfi she‘riyatining ba‘zi mavzulari**” deb nomlangan ikkinchi bob, asosan, ikki mavzuni o‘z ichida qamrab olgan: birinchisi, parchalangan Turkiston qayg‘usi, ikkinchisi, o‘z yurtidan quvg‘inga uchragan qirimlilar hasrati. “**Rauf Parfi she‘riyatida Turkiston mavzusi**” nomi ostida berilgan dastlabki faslda shoirning shu mavzuni o‘z qamroviga olgan she‘rlari tahlilga tortiladi.

“*Ona Turkistondir turklarning toji...*”. Shoir Rauf Parfining “Dorning og‘ochi”²³ (1988) she‘rida Turkistonga shunday ta‘rif berilgan. Lekin, afsuski, turk millatlari mana shu “toj”ni boy berishgan edi. Rauf Parfi she‘rlariga e‘tibor berilsa, mana shu yo‘qotishning alamu hasratlari, uni qayta qo‘lga olishga da‘vatu orzularini tuyasan kishi.

Rauf Parfi “Turkiston yodi” (1981) she‘rini Turkiston mavzusidagi birinchi she‘rim, deydi. Lekin “Vatan haqida Bernd Ientshga maktubim” (1973) she‘riga diqqat qilsak, parchalangan Turkiston dardi Rauf Parfi ijodida o‘tgan asrning 70-yillaridan boshlanganini kuzatish mumkin. Avvalo, savol tug‘iladi, nega olmon shoiriga? Fransuzgamas, inglizgamas yoki boshqasigamas?.. Chunki Rauf Parfi Vatan masalasida aynan olmon shoiri bilan hamdard edi, taqdiridosh edi. Negaki, Bernd Ientsh Olmoniyasini ikkiga va Rauf Parfi Turkistonini beshga bo‘lib tashlagan ham bitta yovuz davlat edi. Shuning uchun ham o‘zbek shoirining bu she‘riy maktubi aynan olmon shoiriga yozilgan.

Rauf Parfining eng katta orzusi parchalangan mana shu Turkistonni yana butun ko‘rish edi. U yurtning farovonligini va millatning taraqqiyotini shunda ko‘rdi. Buning uchun, avvalo, Turkiston kengliklariga bahoriy havo baxsh etib, millatni uyg‘otish kerak. Shoirning “Lutfixonim. “Uyg‘on, bolam”, “Ona Turkiston”, “So‘nmas ruhimizda matonat aslo...”, “Abdurauf Fitrat” kabi she‘rlari shu maqsadda yozilgan.

Shuningdek, Rauf Parfining “Dorning og‘ochi”, “O‘zingni ayama,

²¹ Rauf Parfi. Сайланма. Икки жилдлик, биринчи жилд. – Т.: Muharrir, 2022. – Б. 386.

²² Миразиз Аъзам. Жудолик // Оила ва жамият, 2005. 31 март – 6 апрел сонлари.

²³ Rauf Parfi. Сайланма. Икки жилдлик. 1-жилд. – Т.: Muharrir, 2022. – Б. 321.

borayotgan ildiz”, “Tuhmat – 1985”, “Adashgan ruh” she’rlarida ham Turkiston birligi dardi bilan birgalikda Istiqlol qayg’ulari ham o’z ifodasini topgan. Bugun Turkistongina emas, butun Turkiy xalqlar birligi milliy siyosatimizning kun tartibida turibdi. Afsus, Shoirimiz bu kunlarni ko’rmay o’tib ketdi. Lekin u So’zi bilan shu Kunlarni chorlab, orzulab, shu Kunlarning xizmatini qilib o’tdi.

Mazkur bobning **“Rauf Parfining “Qirim xayollari” turkumi**”da vatanidan quvg’inga uchragan qirimlilarning fojeali taqdirleri o’z ifodasini topgan. Quvg’unga uchragan qirimliklar mavzusi o’zbek adabiyotida Rauf Parfi ijodidan boshlanadi. Buning o’z sabablari bor. Birinchidan, shoirning oilasi yurtidan haydalgan qirimliklar bilan yaqin aloqada edi²⁴. Ikkinchidan, shoir talabalik yillarida qirimlik Ayder Osmon ismli kursdoshi sabab ularning siyosiy harakatiga qo’shib qoladi. Shoir shu yillari (1964-1965) yigirmata she’rdan iborat **“Qirim xayollari”** turkumini yozadi. Shoir arxivida tarqoq holdagi mashinka nusxalar orasidan **“Oddiy kasrlar”, “Vatan”, “Hijrat”, “Boqchasaroy fontani”, “Qani otlan, qani otlan...”, “Qadrdon, sendadir xayolim...”, “Shafiqa, sitamgar raqqosa...”** kabi she’rlar ostida **“Qirim xayollari”** nomli turkumdan yozuvi bor. Dissertatsiyada turkumga mansub **“Vatan”, “Hijrat”, “Oddiy kasrlar”, “Bog’chasaroy fontani”, “Sen uxlab yotibsan...”, “Hijratda ona allasi”** she’rlarni tahlilga tortdik.

Rauf Parfining yurtidan haydalgan qirimlilar mavzusidagi so’nggi she’ri – **“Hijratda ona allasi”** 1973-yilda yozilgan. Shundan keyin shoir bu mavzuga boshqa qaytmadi. Lekin o’zbek adabiyotida uning tomonidan boshlab berilgan ushbu mavzu davom ettirildi, an’ana paydo bo’ldi. Abdulla Sherning **“Boqchasaroy balladasi”, “Qaysi asr, qay yilu oydan...”, “Dostondan so’ng”, “Qizil shalonlar”, “Qirimdagi ijod uyida”, “Ikki o’q”** she’rlari, Xurshid Davronning **“Qoratog’ daftari”** turkumi va Usmon Qo’chqorning **“Quvg’in”** dostoni she’riyatimizning mana shu yo’nalishdagi yorqin namunalar hisoblanadi.

“Rauf Parfining badiiy ijodga oid qarashlari” deb nomlangan uchinchi bob ham ikki fasldan iborat. **“Shoirning adabiy-estetik qarashlari”**ga bag’ishlangan birinchi faslda Rauf Parfining adabiyot nima, uning jamiyatdagi vazifasi nimadan iborat, shoir kim, she’rning yaralish jarayoni bilan bog’liq jihatlar tahlilga tortilgan.

Rauf Parfi lug’atida eng ko’p takrorlanadigan so’zlardan biri **“so’z”**dir. Bu, albatta, badiiy so’z – adabiyot, xossatan, she’riyat ma’nosida. Shoir ijodida so’z mana shunday keng ma’noda qo’llaniladi. U **“So’zlar”** nomli she’rida: **“So’zlar kerak Bosh Harblarda yaralangan, Bosh harflardan yaralgan So’zlar”,** – deydi. Bu bilan shoir adabiyotning bosh vazifasiga urg’u beradi. Bosh harflardan yaralgan so’zlar, bu – ERK, INSON, IYMON, VATAN, MILLAT, HAQIQAT... Va, aynan, shu tushunchalar yo’lidagi kurash – **“Bosh Harblar”**dir. Rauf Parfi nazdida adabiyot mana shunday katta harflardan yaralgan tushunchalar yo’lidagi kurashlarga yarashi kerak. Uning uchun adabiyot shunchaki ko’ngilxushlik emas, shuningdek, ijodkor ham shunchaki darbadar – bemaqsad chopadigan **“daryo”** emas.

²⁴ Bu haqda qarang: Раҳимжон Раҳмат. Шоир Рауф Парфи билан суҳбат // Адабиётдан чиқиш. – Т.: Akadennashr, 2015. – Б. 69.

Rauf Parfining 60-yillar ijodida esa “qushcha” obrazi paydo bo‘ladi. Mana, shunday she‘rlaridan biri: *“Bir qushcha derazam yonida, O‘ltirar parishon va g‘arib”*²⁵, – deb boshlanadi. Bundan oldingi “To‘rg‘ayga” nomli she‘ridagi to‘rg‘ay obrazi bilan ushbu qushchani qiyoslaydigan bo‘lsak, birinchi farq shoir bilan ular orasidagi masofada ko‘rinadi: to‘rg‘ay osmonda, qushcha shoir derazasi yonida. Ikkinchi farq ularning kayfiyati bilan bog‘liq: to‘rg‘ayning kuylari sho‘x, nafis, “yuraklari xush”, shuningdek, u ko‘k yuzida parvoz etib yurgan erkin va zavqli qush. Qushcha-chi? *“O‘ltirar parishon va g‘arib, Yig‘laydi, ko‘zlari yonadi...”* Uning qalbida bir dard bor. Lirik qahramon qushchani dardini bilgisi keladi, lekin bilolmaydi, faqat unga hamdard bo‘la oladi, unga qo‘shilib yig‘laydi. O‘sha 60-yillarda yozilgan she‘rlaridan birida Rauf Parfi qushchani yana tilga oladi: *“Bir qushcha sayraydi mening ruhimda, Men sening ismingni bilmayman, Qushcham”*. Endi qushcha deraza oldida emas, shoirning ruhida sayrayapti. Bu – Rauf Parfi ruhiyatidagi Shoirlik edi. Endi Rauf Parfi nomli Shaxs bilan Shoirlik bir vujudda yashayapti. Lekin shunda ham shoir “qushcha”ni tanimaydi: *“Men sening ismingni bilmayman, Qushcham!”* deydi. Chunki insoniy aql bilan uni tanishning, anglashning iloji yo‘q, u his qilinadi, xolos. Agar shoir ijodidagi qush obrazini tadrijiy o‘rgansangiz, ushbu poetik obraz dinamikasini kuzatasiz. Bu – Rauf Parfi ruhiyati zamirida tomir otgan Shoirlikning o‘sishi. Shoirning 1994-yilda yozilgan bir she‘rida: *“Achchiq chirqiraydi noma‘lum bir qush”*²⁶, deyiladi. Demak, shungacha ham bu qush “noma‘lum”ligicha qolmoqda. Farqi, birinchidan, “qushcha” endi “qush”ga aylandi. Ikkinchidan, endi u “yig‘lamaydi”, balki “chirqiraydi”, chirqiraganda ham “achchiq chirqiraydi”. Shoir umrining oxirlarida yozilgan bir she‘rida esa:

*Yo‘q, men qushman, chala so‘yilgan qushman,
Aytilmagan bir So‘zim bor bo‘g‘zimda,*²⁷ –

deydi. E‘tibor berayapsizmi, endi shoirning o‘zi qushga aylanib bo‘ldi, bo‘lganda ham “chala so‘yilgan qush”ga. U chala bo‘g‘izlangan. Endi “achchiq chirqirash”dan ham mahrum u. Lekin shu holatda ham bo‘g‘zida aytadigan So‘zi bor. Ana shu So‘z Rauf Parfini umrining oxirigacha yondirib kuylatdi. Bu – Haq So‘z edi. Shoirning ixtiyori o‘zida emas edi, uni mana shu So‘z boshqarardi. Shuning uchun ham Rauf Parfi: *“So‘zlamayman deyman. So‘zlayman. / So‘zlarimning ortidan ergashaman / Qaro go‘rgacha”*²⁸, deydi.

Rauf Parfi she‘rlarida ilhom haqida ham to‘xtaladi, U shoirga ba‘zan yoqimli yomg‘ir, ba‘zan unga munkayib qolgan choldan navqiron yigitga eviruvchi kuch-quvvat bo‘lib, ba‘zida bir qo‘lida xanjar, bir qo‘lida marjonu zumradlar bilan keladi.

Xullas, Rauf Parfi ijodida poetik so‘z bilan bog‘liq bir qator holatlar o‘z ifodasini topgan: 1) badiiy so‘zning ta‘rifi; 2) shoirlikning qush timsolida lirik qahramon ruhiyatiga evrila borish dinamikasi; 3) badiiy so‘z yaratilish jarayonidagi ijodkor ruhiy holati va ilhomning o‘ziga xos tabiati. Bularning

²⁵ O‘sha kitob. – B. 101.

²⁶ O‘sha kitob. – B. 337.

²⁷ O‘sha kitob. – B. 357.

²⁸ Рауф Парфи. Туркистон руҳи. – Т.: SHARQ, 2013. – Б. 246.

barchasi Rauf Parfi adabiy-estetik qarashlarini yaxlit bir konsepsiya sifatida bizga taqdim etadi.

Bobning ikkinchi fasli **“Shoir poetik ijodining takomilida jahon adabiyotining o‘rni”** deb nomlanadi. Unda bu adabiyotning shoir ijodiga ta’siri masalasi yoritiladi.

Rauf Parfi, rus tilini yaxshi bilganligi uchun ham, dunyo xalqlari adabiyoti bilan juda erta tanisha boshladi. Shoirning ruschadan tarjimalari 1955-yildan boshlangan. Rauf Parfi muhabbat qo‘ygan jahon ijodkorlaridan biri Vilyam Shekspir edi. Shoir 1965-yilda uch sonetdan iborat **“Hamlet”** she’rini yozdi. Ba’zi she’rlariga Shekspir asarlaridan epigraflar oldi. Rauf Parfiga kuchli zavq bergan va ruhlantirgan shoirlardan yana biri – Jorj Bayrondir. Shoirning o‘z e’tiroficha, **“Manfred”**dagi ozod ruh unga qattiq ta’sir qilgan. Rauf Parfining Bayron shaxsiyati va she’riyatiga ruhiy yaqinligi uning **“Bayronning so‘ngi safari”** she’rida ham ko‘ringan.

Rauf Parfi murojaat qilgan dunyo adabiyoti vakillari uch jihatdan: yo Ozodlik tuyg‘usi bilan, yo Vatan qayg‘usi bilan, yoxud estetik tamoyillari bilan shoirga yaqin turadi. Ba’zan ularning uchalasi ham mujassam bo‘lib kelgan. Chililik shoir Pablo Neruda Rauf Parfiga mana shunday rishtalarning har biri bilan bog‘liq. Shuning uchun ham shoirimiz uning nafaqat she’riyati, balki shaxsiyatiga ham katta hurmat bilan qaragan edi. Uning **“Pablo Neruda o‘limiga”** she’ri bunga dalil. She’rda R.Parfi uni **“Chilining oppoq tongi”**, **“Ozodlikning so‘ngisiz osmoni”**, hatto, Ozodlik osmonining quyoshi degan so‘zlar bilan ta’riflaydi.

“Bas, mening uchta pirim bor, – deydi Rauf Parfi bir maqolasida, – Yassaviy pirim, Navoiy pirim, Thakur pirim”²⁹. Shoir jahon adabiyoti namoyandalariidan birortasini bu darajada ulug‘lamagan. Yassaviyu Navoiylar, shak-shubhasiz, milliy-ma’naviy yo‘limizning o‘zgarimas mayoqlari. Thakur esa istibdod iskanjasidan o‘z millatini olib chiqish yo‘llarini yoritgan daho ijodkor. U o‘zining nafaqat yurtu millatiga muhabbati, balki shu vatanning milliy ozodligi yo‘lidagi jasorati bilan ham Rauf Parfiga ustoz. Rauf Parfi ijodiga qaraydigan bo‘lsak, uning Thakurga bag‘ishlangan she’rlari va uning ta’siriida yozilgan baytlari borligining guvohi bo‘lamiz.

Rauf Parfi o‘zbek o‘quvchisini jahon adabiyoti namoyandalari bilan ikki usulda tanishtirdi: birinchisi, ular haqida ma’lumot berish vositasida (she’r, maqola va adabiy suhbatda), ikkinchisi, asarlarini tarjima qilish orqali. Shoirning tarjima g‘aladonida bir epopeya (N.Hikmat **“Inson manzaralari”**), ikki doston (M.Hodiy **“Hayot sadolari”**, A.Tvardovskiy **“Xotira huquqi”**), bir dramatik doston (Bayron **“Manfred”**), uchta pyesa (Ya.Solovich **“Kumush sirtlon”**, G.Oster **“Maymunjonga salomlar”**, U.Saroyan **“Ey, kim bor?”**), ikkita hikoya (Ye.Gusalo **“Uchrashuv”**, T.Miura **“Sabr daryosi”**), shuningdek, dunyo she’riyatidan to‘rt yuzga yaqin lirik she’rlar tarjimasini borligi ma’lum bo‘ladi.

“She’riy janrlar poetikasi” deb nomlangan to‘rtinchi bobning birinchi fasli **“Rauf Parfi she’riyatining asosiy janrlari”** haqida. Rauf Parfi ijodining ilk bosqichlaridan boshlab turli she’riy janr va shakllarda o‘z qalamini sinay boshladi.

²⁹ Рауф Парфи. Сайланма. Икки жилдлик, иккинчи жилд. – Т.: Muharrir, 2022. – Б. 119.

Shoirning ilk lirikasiga e'tibor berilsa, barmoqning turli vaznlarida, sarbastning rang-barang shakllarida, hatto mumtoz she'riyatning g'azal, muxammas, mustahzod, ruboiy, tuyuq kabi janrlarida ham o'z qalamini sinaganining guvohi bo'lamiz. Shoir Usmon Qo'chqorning "Rauf Parfi g'azaliga muxammas"i³⁰ g'azalnavislik shoirning keyingi ijodiy faoliyatida ham davom etganini ko'rsatadi. Lekin Rauf Parfi birorta g'azalini, ko'ngli to'lmagan bo'lsa kerak, kitoblariga kiritmagan. Rauf Parfining "Deyin, xayoling-la kechurda hayot..." deb boshlangan muxammasi Alisher Navoiyning "Unutmagilki, to'ljay bedod, Mani bir noma birla qilmading yod" matla'li g'azaliga bog'lagan. Yetti bandlik ushbu taxmis ostida "1959. 12. 14" sanasi qo'yilgan. Shoir 80-90-yillarga kelib Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho'lpon, Usmon Nosir kabi shoirlarning g'azallariga ham muxammaslar yozdi.

Shoir, shuningdek, epitafiya, rondo, rondel, tanka, xokku kabi Yevropa va yapon she'riyatiga mansub janrlarda ham ijod qilgan. Rauf Parfi o'z ijodiy faoliyati davomida eng ko'p foydalangan she'riy janr, bu – sonet. Shoir sonetga ancha erta qo'l urdi. Uning ilk sonetlari 1958-yilga tegishli. Rauf Parfi sonetlari o'zining poetik mukammalligi va mavzular rang-barangligi bilan o'ziga zamondosh shoirlar sonetchiligidan alohida ajralib turadi. Ijodkor adabiy merosi tarkibida 127 ta sonet mavjud bo'lib, shulardan 121 tasi shoirning o'zi hayotligida chop etilgan, oltitasi esa eski daftarlarda qolib ketgan.

Rauf Parfi sonetlariga adabiyotshunosligimizda S.Mamajonov, B.Nazarov, A.Sher, B.Mixaylichenko, Chori Avaz, H.Mirzayev, D.Quronov kabi adabiyotshunos va ijodkorlar o'z munosabatlarini bildirgan bo'lsalar, S.Rahmonova, O.Fayzullayeva kabi tadqiqotchilar bu sonetlarni maxsus tadqiq etishga harakat qildilar³¹. Rauf Parfi sonetlarini ikki guruhga – yakka va turkum sonetlarga ajratish mumkin. Shoirning 127 ta sonetidan 43 tasi yakka, 84 tasi turkum ichidagi sonetlar hisoblanadi. Turkumlarda ikkitadan oltitagacha sonet bor. "O'zbek she'riyatida sonetlar turkumi" nomi bilan maqola e'lon qilgan tadqiqotchi Hamid Mirzayev: "Rauf Parfi sonetlar turkumini Usmon Nosirdan so'ng yuqori cho'qqiga ko'tardi. Uni yangi belgilar bilan to'yintirdi, falsafiy mushohada ko'lamini kengaytirdi"³², – deydi. Bu Rauf Parfi sonetlar turkumiga berilgan munosib bahodir.

Bobning ikkinchi fasli "**Rauf Parfi marsiyalari poetikasi**" deb nomlangan. Shoir ijodida marsiyalar talaygina. Shuning barobarida, ularning shakli va poetik xususiyatlari ham xilma-xil. 1955-yilning qish-qirovli dekabr kunlaridan birida Rauf Parfining otasi vafot etadi. Shu munosabat bilan shoir bir emas, to'rtta

³⁰ Usmon K'chqor. Og'ir karvon. She'rilar. – T.: Adabiyot va san'at, 1991. – B. 10-11.

³¹ Mamajonov S. Davr oxanlari, asrimiz obrazi, zamona-miz portreti // ЎТА, 1988. 2-сон; Назаров Б. Янгича фикрлаш муждалари // ЎТА, 1988. 2-сон; Шер А. Ғазалдан униб чиққан гул // Ғўзаллик ёғдуси. – Т.: Файласуфлар, 2017. – Б. 206-220; Михайличенко Б.С. Поэтика узбекского сонета. – Самарканд, 1999. – С. 51-60; Чори Авaz. Изланиш излари // Бахтиёрлик шу эмасми? – Қарши: Насаф, 1992. – Б. 30-31; Раҳмонова С. Ўзбек сонети: поэтик структура ва бадиий образ. – Т.: Фан, 2008; Файзуллаева О. Ҳозирги ўзбек шеърлятида сонет жанрининг бадиий хусусиятлари (Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация). – Т., 2011; Мирзаев Х. Ўзбек шеърлятида сонетлар туркуми // ЎТА, 2007. 1-сон. – Б. 65-68; Файзуллаева О. Рауф Парфи ижодида сонет // ЎТА, 2007. 4-сон. – Б. 56-58; Kuranov D. Rauf Parfi'nin Efsunlu Soneleri // "Türk Edebiyatı" (Aylık Fikir ve Sanat Dergisi), Ekim 2022 / Sayı: 588. – S. 9-15.

³² Хамид Мирзаев. Ўзбек шеърлятида сонетлар туркуми // ЎТА, 2007. 1-сон. – Б. 66.

marsiya yozgan: “Dadamga marsiya” (1955), “1955-yil 3-dekabr xotirasi” (1958), “Otam xotirasiga” (1960) va “Xayr, dada...” (1962) she’rlari. Rauf Parfi otasi vafotidan yetti yil o‘tgandagina “Xayr, dada...” marsiyasida u bilan vidolashadi, shungacha undan ko‘nglini uzolmaydi, otasizlikka ko‘nikolmaydi ham.

Mana shu – 1962-yildan keyin Rauf Parfi ijodida marsiya janrining turli shakllari yaratila boshlandi. “Isikava Takuboku xotirasiga”³³ (1962) “Nozimning sadosi” (1963) marsiyalarida shoir marsiyalariga xos bir xususiyat yarq etib ko‘zga tashlanadi. Bu Isikava Takuboku xotirasida yozilgan she’r Takuboku yo‘lida yozilganidek, Nozim Hikmatga bag‘ishlangan marsiya ham Nozim Hikmat uslubida yaratilganidir. Keyinchalik biz bu poetik hodisani “Oybek xotirasiga” (1968), “Pablo Neruda o‘limiga” (1973), “Nikolay Rubsov xotirasiga” (1977) marsiyalarida ham kuzatamiz

Rauf Parfining “Abdullajon marsiyasi” she’ri 1965-yili yozilgan. “Abdullajon marsiyasi” o‘ziga xos poetik xususiyatga ega. U uch qismdan iborat. Vazniga e’tibor bersak, birinchi qism boshqa, ikkinchi va uchinchi qismlar boshqa vaznda. Birinchi qism qo‘sh vaznli bo‘lib, toq misralarning o‘lchovi 4+4 bo‘lsa, juft misralar 4+3 o‘lchamida. She’rning ikkinchi va uchinchi qismlari esa to‘qqizlik turkumning 4+5 vaznida. She’r vaznlarining har xil bo‘lishi uning yaralish o‘rni bilan bog‘liq. Shoirning guvohlik berishicha, “ayrim satrlar o‘shanda (ya’ni, poezdda kelishda – O.T.) tug‘ilgan”. Ayni qismdagi “Qushlar, qushlar, qator-qator”, “O‘ynar bo‘ron, o‘ynar bo‘ron”, “Yo‘llar uzun, yo‘llar uzun”, “Poezd chopar, poezd chopar”, “Bo‘zlar osmon, bo‘zlar osmon”, “Yel yig‘laydi, el yig‘laydi” takrorlarning kelishi ham shpallardan chiqayotgan tovushlarning takroriga hamohang. She’rning ikkinchi va uchinchi qismlari esa Abdullajonning qabri ustida yaratilgan.

Rauf Parfining “Oybek xotirasiga” (1968) she’ri o‘zbekning ulug‘ adibi Muso Toshmuhammad Oybekning vafotiga yozilgan. She’r har bandi besh misrali ikki banddan iborat. Marsiya simvolistik she’rning go‘zal namunasi. She’rdagi *tog‘, buloq, o‘tloq, chiroy, nur, oy* kabi so‘zlar poetik ramzlardir. *Tog‘* – adib yashab ijod etgan ijtimoiy muhitni, oydin buloq – o‘sha tog‘u toshlar orasidan qaynab chiqayotgan uning ilhomi va iste’dodini, shivirlayotgan o‘tloq – yashnab turgan hayotni, buloqdagi sobit chiroy – u ijodiy iste’dodning o‘lmasligi va fayziyobligini, nur – ijodkor o‘y-fikrlarining oydinligini, suvda suzayotgan oy esa mangulik sari ketayotgan ijodkorning o‘zini anglatadi. She’r so‘nggiga qadar mana shunday simvollar asosida yaratilgan.

“Habib Abdulla xotirasiga” deb nomlangan marsiya akademik Habib Abdullaev vafoti munosabati bilan yozilgan. She’r yuqoridagi nom bilan birinchi marotaba shoirning “Tasvir” (1973) kitobiga kiritilgan bo‘lsa, 1997-yilda Rauf Parfi uni qayta ishlab, uchta sonetdan iborat yangi variantini yaratdi. Bu variant “Yer farzandi” nomi bilan shoirning “Tavba”, “Turkiston ruhi” va “Sakina” kitoblaridan o‘rin olgan.

Rauf Parfining navbatdagi marsiyasi “Nikolay Rubsov xotirasiga” (1977) deb nomlanadi. Nikolay Rubsov (1936-1971) – rus shoiri. She’r sarbastda

³³ Рауф Парфи. Сайланма. Икки жилдлик, иккинчи жилд. – Т.: Muharrir, 2022. – Б. 70.

yoʻzilgan, oʻn besh satrdan iborat. *“Qor ostida koʻklam, tun qoʻynida tong, Oʻlim haqidagi oʻylardir – hayot”* misralari bilan boshlanadi. Rauf Parfida 60-yillardayoq antisovet kayfiyat paydo boʻlgani – fakt. U sovet jamiyatiga qahraton qish, zimiston tun deb qaragani – aniq. Nikolay Rubsov va uning kabi bu tuzumga qarshi harakatdagilarning fikrini esa *“Qor ostida koʻklam, tun qoʻynida tong”* deydi shoir. Bu bilan Rauf Parfi jamiyatda yangi bahor va yangi tongning belgilarini koʻradi. Fikrimizni sheʼrning keyingi misralari ham tasdiqlaydi: *“Koʻzlarimni yumsam, Koʻringay bir nuqta, Qizarib borar tobora”*. Oʻsha tobora qizarib borayotgan nuqta shoir koʻzlariga koʻrinayotgan yangi tongning ol shafaqlari edi.

Oʻtgan asrning 60-70 yillarida “gitarali odam” deb nom qozongan bir qoʻshiqchi bor ediki, uni butun dunyo tanirdi. Rauf Parfining “Viktor Xaraning soʻnggi qoʻshigʻi” (1973) marsiyasi shu qoʻshiqchining xunta tomonidan fojeali oʻlimi munosabat bilan yozilgan... Shoirning “Pablo Neruda oʻlimiga” (1973) marsiyasi yuqorida toʻxtanilgan davlat toʻntarishining yana bir qurboni haqida. Dunyo tanigan shoir, Nobel mukofoti sovrindori, Viktor Xaraning ustoz Pablo Nerudaning oʻlimi erkparvar qoʻshiqchi vafotidan bir hafta oʻtib – 23-24 sentyabrda yuz berdi. Sheʼrida Rauf Parfi Pablo Nerudani *“Chilining oppoq tongi”*, *“Ozodlikning soʻngsiz osmoni”*, hatto, Ozodlik osmonining quyoshi degan soʻzlar bilan alqaydi. Afsus, uni oʻldirdilar: *“Ufqning boʻyniga sirtmoq – dor tashlab”*, *“oʻldirdilar qora mashʼal tutgan qora shaytanat”*... 1973-yilning 23-24-sentabrlarida yuz bergan ushbu voqea Neruda yurtidan millionlab chaqirim uzoqlikda yashayotgan bir oʻzbek shoirining qalbida ham aks-sado berdi.

Rassom Shuhrat Abdurashid Rauf Parfining yaqin doʻstlaridan biri edi. Uning “Shuhrat Abdurashid mozorida” (1980) marsiyasi shu rassom doʻstining vafoti munosabati bilan yozilgan. Toʻrt bandedan iborat bu sheʼr sarbastda bitilgan. Birinchi bandedagi “Doʻstlaringga” kalimasi ikkinchi bandeda “Xotiningga”, uchinchi bandeda “Vataningga” soʻzlari bilan almashib keladi. Band strukturasi oʻzgarmagan – har biri uch misradan iborat. Birinchi va uchinchi bandlarning ilk misralarida “Oʻlgan oʻldi. Ketdi”, uchinchi misralarida “Bilmadim” soʻzlari aynan takrorlanib kelgan. Qisman oʻzgarishni har bandning ikkinchi misrasida kuzatish mumkin. Toʻrtinchi band bulardan farq qiladi: *“Hammasini qilishar / Oʻlmaganlar. / Oʻlgan oʻldi. Ketdi”*. “Oʻlgan oʻldi. Ketdi” satri endi band boshidamas, soʻnggida keladi. Sheʼr kompozitsiyasiga eʼtibor beradigan boʻlsak, juda sodda – faqat tezis va sintezdan iborat. Yaʼni 1-3-bandlarda poetik fikr ilgari suriladi va toʻrtinchi bandeda xulosa yasaladi.

Rauf Parfining bizgacha yetib kelgan barcha marsiyalari uning qalbiga yaqin insonlar haqida. Lekin shoir sheʼrlari orasida “marsiya” nomi berilgan yana bir qator manzumalar borki, ular biz tadqiq etayotgan marsiyalardan mutlaqo farq qiladi. Bunga shoirning “Xudbinga marsiya”, “Tuvakning oʻlimiga marsiya”, “Mamatning quturgan iti uchun marsiya”, “Oʻtkirning quyoni uchun marsiya”, “Haqberdining baytali uchun marsiya” sheʼrlari kiradiki, bular hajviy yoʻlda yozilgan va ular kishilarning vafoti munosabati bilan yoziladigan marsiya janriga aloqasi yoʻq.

“Rauf Parfi ijodida she’riy shakllar” nomli beshinchi bobning ilk fasli shoir sarbastlarining poetik tabiati haqida. Rauf Parfi she’riyatining poetik shakllaridan biri sarbastdir. Sarbast so‘zi garchi forscha bo‘lsa-da, istiloh o‘laroq bizga turk adabiyotidan kirib kelgan. Bu so‘zning lug‘aviy ma‘nosi ba‘zi adabiyotlarda “ozod” deyiladi³⁴. “Farhangi zaboni tojik”da “sarbast” so‘zi bo‘lmasa-da, uning “sarbasta” shakliga “1) po‘shida, mahkam, basta; 2) pinhon, maxfiy; mubham, nosareh” ma‘nolari berilgan va “suxan sarbasta guftan” iborasiga “bo parda suxan kardan, bo ramzu kinoya gap zadan” deya izoh berilgan³⁵. Bundan anglashiladiki, sarbast yopiq, yashirin, maxfiy ma‘nolarini anglatib, sarbast gap aytish degani, fikrni pardalab gapirish, ramz va qochirimlar vositasida ifodalash, degan ma‘nolarni anglatadi. Ma‘lum bo‘ladiki, “sarbast” so‘zi fransuz va rus tillaridagi istilohiy ekvivalenti “verlibr” va “svobodnyy stix” so‘zlari kabi lug‘atda “ozod” ma‘nosini anglatmasa-da, atama sifatida sarbast she’rning mohiyatini ifodalaydi.

Rauf Parfining “Ehtimol tushunmabsan...” (1961) deb boshlanuvchi she’ri uning estetik olamida yangi bir she’riy shakllar kirib kelayotganidan dalolat beradi. Bu sarbast yo‘li edi. She’rda shunday misralarga duch kelamiz:

*Sen yangi tovushdan cho‘chima,
Quloq sola berma
Vazn va qofiyaga,
Qo‘y, eski qanot bilan uchma!
Bas endi riyo qilmoq –
Bu hijo deb, bu turoq deb,
Osilmoq qoidaga³⁶.*

Ushbu parchada Rauf Parfi she’riyatimizga “yangi tovush” kirib kelayotganidan xabar beradi. Uning nazdida, vazn va qofiya an’anaviy she’riyatning ikki va ayni paytda, eski qanoti. Endi bu bilan uchib bo‘lmaydi. Hatto shoir uning davri o‘tgan, deb biladi, “bu hijo, bu turoq” deb she’rning vazniga yopishib olishni “riyo qilmoq” deb ataydi. Bu o‘tgan asrning 60-yillarida she’riyatda yangi tong otayotganini bildirardi. Bu tongning o‘zbek she’riyatidagi ilk sayroqi qushi Rauf Parfi edi.

Erkin she’rda chaqiriq, da’vatkorlik, ritorika kuchli bo‘ladi. Sarbast esa bu jihatdan uning teskarisi. Unda sokinlik, mulohaza, mushohada bor. Rauf Parfi “Nikolay Rubsov xotirasiga” nomli sarbast-marsiyada “Sokin, og‘ir she’rlar yozmoq bo‘laman sha’ningga”, – deydi. Shoir bu yerda “sokin” deganda sarbastni, “og‘ir” deganda marsiyani nazarda tutadi. Muhimi shundaki, Rauf Parfi ushbu misrada sarbast poetikasiga xos bo‘lgan muhim bir xususiyatga, ya’ni uning tabiatiga xos sokinlikka urg‘u beradi.

Shuningdek, ushbu faslda dunyo adabiyotida modernistik she’riyatning asosiy she’riy shakli bo‘lmish sarbastning paydo bo‘lishi, fransuz adabiyotidagi uning ijodkorlari, turk sarbastchligidan milliy she’riyatimizga kirib kelishi, uning milliy she’riyatimizdagi namoyandalari, adabiyotshunosligimizda bu she’riy

³⁴ Маматова А.Н. Ўзбек шеърлятида сарбаст. – Т.: UWED, 2000. – Б. 22.

³⁵ Фарҳанги забони тожики. Жилди II. – М.: Советская энциклопедия, 1969. – С. 202.

³⁶ Рауф Парфи. Сайланма. Икки жилдлик, биринчи жилд. – Т.: Muharrir, 2022. – Б. 65.

shaklga oid qarashlar va tadqiqotlar ustida fikr yuritilgandan so‘nggina shoir Rauf Parfining sarbastlari, uning poetik xususiyatlar tahlilga tortildi. Xulosa shuki, milliy she‘riyatimizda sarbastning qonuniy o‘rin tutishida, takomilida, poetik jihatdan o‘ziga xos shaklu shamoyil kasb etishida, mavzu va uslub jihatidan rang-barang bo‘lishida shoir Rauf Parfining ulkan xizmatlari bor.

Bobning ikkinchi fasli **“Rauf Parfi erkin va nasriy she‘rilarning badiiyati”** deb nomlandi. Erkin she‘r ham, nasriy she‘r ham dunyo she‘riyatining faol poetik shakllaridan hisoblanadi. Adabiyotshunosligimizda erkin va nasriy she‘r shakllari haqida bir qator tadqiqotlar yaratilgan³⁷.

Shoir Rauf Parfi istifoda etgan she‘riy shakllardan biri, bu, albatta, erkin she‘rdir. Shoirning she‘r kitoblariga kirgan o‘n to‘qqizta erkin she‘rlaridan aksariyati 1963-1965-yillarda, birgina “Vetnam haqida qo‘shiq” 1967, “Pablo Neruda o‘limiga”, “Viktor Xaraning so‘nggi qo‘shig‘i”, “Vatan haqida Bernd Ientshga maktubim” kabi she‘rlari esa 1973-yilda yozilgan. Ko‘rinib turibdiki, shoir bu poetik shaklga ijodiy faoliyatining ma‘lum bir yillaridagina murojaat qilgan. Qizig‘i shundaki, Rauf Parfi erkin she‘rlarining o‘z mavzusi va o‘z ohangi bor. Shoirning dunyo bilan, unda istiqomat qilayotgan insoniyat bilan tuzgan poetik bitimining asosi erkin she‘rlarida o‘z ifodasini topgan. Shoir *“Kuch-quvvat bag‘ishlar erkin she‘rimga / Unli tovushlarning sohir qo‘shini”*³⁸, satrlarida “unli tovushlar” deganda adabiyotdagi bosh mavzularni nazarda tutadi. Bular: inson erki, vatan ozodligi, haqiqat, adolat... Darhaqiqat, bu she‘rlarning qahramonlari adolat va insoniy erku ozodlik uchun kurashgan Nozim Hikmat, Pablo Neruda, Viktor Xara, Luis Moran kabi shaxslardir.

Faslda “Shodlik”, “Shamollar”, “Cheksiz-cheksiz daqiqalardan iboratdir...”, “Oddiy kasrlar”, “Vaqt”, “San‘at tushunchasi”, “Baxt va tashvish”, “Oddiy gap” kabi erkin she‘rlarning uslubi, kompozitsion o‘ziga xosliklari, ularda uchragan gradatsiya, takror, ritorik murojaat, ritorik so‘roq kabi poetik figuralar, leksikasiga xos xususiyatlar ustida fikr yuritildi va kerakli xulosalar taqdim etildi.

Erkin she‘rda vazn va qofiya erkin bo‘lib, bandlardagi misralar miqdori ham turlicha bo‘lsa, nasriy she‘rda she‘rga xos shu uchta unsur ham ishtirok etmaydi. Yanada soddaroq aytsak, erkin she‘rning matni she‘riy qolipda kelsa, nasriy she‘rning matni nasriy qolipda bo‘ladi. Uning “she‘r” deyilishiga asos shuki, birinchidan, ijodkorning tuyg‘u va kechinmalari ifodalanadi, ikkinchidan, she‘riy ko‘chimlardan unumli foydalanadi, uchinchidan, poetik sintaksisda yoziladi. Adabiyotshunosligimizda nasriy she‘rga oid B.Sarimsoqov³⁹, H.Ahmedov⁴⁰, A.Mamatova⁴¹ kabi olimlarimizning tadqiqotlari bor. Nasriy she‘r ham oz bo‘lsa-

³⁷ Тўйчиев У. Ўзбек шеър системаси. – Т.: Фан, 1981. – 48 б.; Бобоев Т. Шеър илми таълими. – Т.: Ўқитувчи, 1996. – 344 б.; Мамажонов С. Услуг жилолари. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1972. – 220 б.; Шукуров Н. Услуглар ва жанрлар. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1973. – 172 б.; Иброҳимов М. Ўзбек совет поэзияси жанрларининг таркиб топиши (1917-1930 йиллар). – Т.: Фан, 1983. – 224 б.; Мирҳайдаров Х., Мирҳайдарова Н. Бармоқ тизими таълими. – Т.: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2010. – 128 б.; Маматова А. Ўзбек шеърятисида сарбаст. – Т.: UWED, 2000. – 140 б.; Аҳмедов Х. Ўзбек адабиётида насрий шеър. – Т.: BOOKMANY PRINT, 2023. – 108 б.

³⁸ Рауф Парфи. Сайланма. Икки жилдлик, иккинчи жилд. – Т.: Muharrir, 2022. – Б. 375.

³⁹ Саримсоқов Б. Ўзбек адабиётида сажъ. – Т.: Фан, 1978. – Б. 9-11.

⁴⁰ Аҳмедов Х. Ўзбек адабиётида насрий шеър. Монография. – Т.: BOOKMANY PRINT, 2023.

⁴¹ Маматова А.Н. Мансур шеър сифатлари // Ўзбек шеърятисида сарбаст. Монография. – Т., 2000. – Б. 97-118.

da, Rauf Parfi ijodida ham uchraydi. Uning ilk nasriy she'rlari 1978-yilda yozilgan bo'lib, birinchi marotaba shoirning "Qaytish" (1981) kitobidan o'rin olgan. Ular to'rtta: "Sira ko'nika olmaydilar onam shaharga...", "U dengizni sevadi...", "So'zlar", "Sevgilimning porloq-porloq ko'zlarini..." deb boshlanadigan asarlaridir. "Sabr daraxti"da ular bittaga ko'paygan: "Uldiz Berzinsh so'zlarni qattiq sevar...". Faslda yuqorida nomlari zikr etilgan nasriy she'rlar tahlilga tortildi va poetik xususiyatlari ko'rsatib berildi.

Xullas, erkin va nasriy she'r shakllari Rauf Parfi she'riyatida alohida o'rin tutadi. Garchi ularning adadi unchalik ko'p bo'lmasa-da, shoirning san'atkorligi va tuyg'ularining go'zalligi bois, mazkur she'riy shakllar poetik xususiyatlarga boyligi va uslubiy rang-barangligi bilan ajralib turadi.

Dissertatsiyaning "**Rauf Parfi she'riyatining poetik xususiyatlari**" deb atalgan so'nggi – oltinchi bobi ham ikki fasldan tarkib topgan. Birinchi fasl "**Rauf Parfi she'rlarida vazn**" deb nomlanadi.

Dunyo adabiyotshunosligida she'riy vaznlar bilan bog'liq ko'plab tadqiqotlar borligi aniq. Biz, asosan, rus⁴² va o'zbek⁴³ tillarida chop etilgan ba'zi manbalardan foydalandik. Ularning aksariyatida nazmiy o'lchovlar beshga bo'lib o'rganiladi. Bular: sodda vazn, qo'shma vazn, murakkab vazn, erkin vazn va aralash vazn. Rauf Parfi she'riyatida bularning deyarli barchasini kuzatish mumkin. Sodda vaznda she'rdagi barcha misralar vazn nuqtai nazaridan bir xil o'lchovda bo'ladi. Masalan, Rauf Parfining "Onamga xat" she'rining birinchi bandiga e'tibor qarataylik:

Eshitdim, onajon, xafa emishsan, – 11

Kechir, oylab senga yozolmadim xat. – 11

Garchi muhabbatdan tilardim ehson, – 11

*Yorug' kunlarimga bo'lgandim ilhaq.*⁴⁴ – 11

Ko'rinib turibdiki, she'riy parchadagi har bir misra 11 bo'g'indan iborat. She'r oxirgi misrasigacha shu o'lchovda. Mana shunday bir vaznda yozilgan she'rga sodda vaznli she'r deyiladi. Adabiyotshunoslikda misralari bir xil vaznda kelgan bunday she'rlarni izosillabik (bo'g'inlar miqdorining tengligi) she'r deb ham yuritiladi⁴⁵. She'rshunos olimlarimizning kuzatishlaricha, barmoq tizimidagi

⁴² Жирмунский В. Введение метрику // Теория стиха. – Л.: СП, 1975. – С. 5-231; Томашевский Б.В. Стихосложение // Стилистика и стихосложение. – Л., 1959. – С: 293-493; Тимофеев Л. Слово в стихе. – М.: Советский писатель, 1987; Хамраев М. Бармак // Пламя жизни (о системе стихосложения тюркоязычных народов). – Т.: литературы и искусства, 1988. – С. 56-84.

⁴³ Тўйчиев У. Бармоқ системасида ритм // Ўзбек совет поэзиясида бармоқ системаси. – Т.: Фан, 1966. – Б. 26-105; Султон И. Бармоқ системаси асослари // Адабиёт назарияси. – Т.: Ўқитувчи, 1980. – Б. 301-314; Тўйчиев У. Ўзбек шеър тузилиши // Адабиёт назарияси. 2-том. – Т.: Фан, 1979. – Б. 337-397; Бобоев Т. Бармоқ шеър тизими // Шеър илми таълими. – Т.: Ўқитувчи, 1996. – Б. 16-63; Афоқова Н. Жадид шеърятти поэтикаси (вазн ва қофия муаммолари). – Т.: Фан, 2005; Мирхайдаров Х., Мирхайдарова Н. Бармоқ тизими таълими. – Т.: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2010; Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Т.: Navoiy universiteti, 2018.

⁴⁴ Рауф Парфи. Сайланма. Икки жилдлик, биринчи жилд. – Т.: Муҳаррир, 2022. – Б. 205. Bundan keyin Rauf Parfining shu ikki jildligidan olingan ko'chirmalardan keyin qavsda rim raqamida saylanmaning jildi, arab raqamida esa ko'chirma olingan sahifasi ko'rsatib boriladi – *muallif*.

⁴⁵ Bu haqda qarang: Хотамов Н., Саримсоков Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1983. – Б. 134.

milliy she'riyatimizda uch bo'g'indan o'n yetti bo'g'ingacha she'rlar mavjud⁴⁶. Rauf Parfi ijodida sodda vaznning beshlik (3+2, 2+3), yettilik (4+3, 3+4, 2+5, 5+2), sakkizlik (4+4, 5+3, 6+2), to'qqizlik (3+3+3, 4+5, 5+4, 6+3, 7+2), o'nbirlik (6+5) turkumlariga duch kelamiz.

Rauf Parfi ijodida, shuningdek, sodda vaznning o'nto'rtlik va o'nbeshtlik turkumlari ham borki, bularda turoqlar soni ikkita emas, to'rttaga o'zgaradi. Masalan:

Bir tomonda / xalq esa // bir tomonda / amaldor, – 4+3/4+3

Yoki:

Shivirlaydi / oyog'imda // yashab o'tgan / xazonlar, – 4+4/4+3

Yuqoridagi she'riy parchadan ko'rinib turibdiki, har bir misra vazn jihatdan teng ikkiga – 7+7 ga bo'linadi, lekin shu yettiliklarning ichida ham yana turoqlar bor. She'rshunoslikda mana shu yettilik va uning ichidagi turoqlarning alohida nomi yo'q. Bu yettilikni turkum desak, misrani butun emas, bir qismini tashkil etmoqda, turoq desak, uning ichida yana turoqlar bor. Shu ehtiyojdan kelib chiqib, shu yettilik va uning ichidagi turoqlarni nomlashga zarurat sezamiz. Bizningcha, yuqoridagi she'riy parchaning birinchi, ikkinchi turoqlarini sodda turoqlar, shu ikki turoqning qo'shiluvidan yuzaga kelgan yettilikni esa qo'shma turoq deb atasak, maqsadga muvofiq bo'ladi. Ba'zan o'nbirlik turkum ham to'rt turoqdan tarkib topgan bo'lishi mumkin.

She'rdagi sodda turoqlarning bo'g'ini qancha kam bo'lsa, she'r shuncha o'ynoqi va ohang nuqtai nazaridan jozibador bo'ladi.

Qo'sh vazn deb ikki vaznning almashinib kelishidan yuzaga kelgan she'r vazniga aytiladi. Bu she'rning toq misrasi bir vaznda, juft misrasi boshqa vaznda keladi. Adabiyotshunosligimizda bugunga qadar “qo'shma vazn” deb atalib kelingan atamani, biz til tabiatidan kelib chiqib, “qo'sh vazn” deyishni lozim topdik. Shoir Rauf Parfi ijodida ham qo'sh vaznda yozilgan she'rlar talaygina. Masalan, shoirning to'rt misradan iborat “Shabnam” she'ri aynan shu vaznda yozilgan:

Umring juda / qisqa bo'lsa ham, – 4+5

Dunyoga shaffoflik / bo'lib to'lasan. – 6+5

Sen jamiki / ko'zlarga malham, – 4+5

*Iliq tabassuming / bilan o'lasan*⁴⁷. – 6+5

Ko'rib turganingizdek, she'r ikki vaznda yozilgan: uning toq misralari to'qqizlik (4+5), juft misralari esa o'nbirlik (6+5) turkumda. Shuningdek, “Abdullajon marsiyasi”ning birinchi qismi, “Men kelganda xasta edi...”, “Oydinlik”, “Yodingdami, sevgilim, bir kun...”, “Tavfiq Fikrat kitobiga yozuv” she'rlari qo'sh vaznda yozilgan go'zal namunalar hisoblanadi.

Rauf Parfi she'rlarida uchraydigan yana bir vazn turi, bu – murakkab vazndir. Qo'sh vaznda ikki o'lchovli misralar ishtirok etsa, murakkab vazndagi she'rning misralari uch va undan ortiq o'lchovli bo'ladi. Manbalarda “undan ortig'i”ning chegarasi ko'rsatilmagan. Shoir ijodida murakkab vaznda yozilgan

⁴⁶ Qarang: Tўйчиев У. Ўзбек совет поэзиясида бармоқ системаси. – Т.: Фан, 1966. – Б. 97-99; Мирхайдаров Х., Мирхайдарова Н. Бармоқ тизими таълими. – Т.: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2010. – Б. 49-51.

⁴⁷ Рауф Парфи. Сайланма. Икки жилдлик, биринчи-жилд. – Т.: Мухаррир, 2022. – Б. 96.

she'rlardan birir "Ona, mening haqim ko'p" deb boshlanadi. O'n olti misradan iborat bu she'rda 3, 5, 6, 7, 11 lik turkumlar ishtirok etgan. Misralardagi vaznning mana shunday xilma-xilligi uchun ham bunday she'rlarni murakkab vaznli she'rlar deyiladi.

She'rshunoslikka oid kitoblarda nazmiy o'lchovning erkin vazn va aralash vazn turlari ham farqlanadi. Bularning har ikkalasini ham murakkab vaznga kiritsak to'g'ri bo'ladi, degan fikrdamiz. Birgina erkin vazn degan tushunchaga e'tibor qarataylik. Nafsilamrini aytganda, erkin vazn degan alohida bir she'riy vazn yo'q, aslida. Lekin erkin she'r degan poetik shakl bor⁴⁸. Bu poetik shakl, nafaqat vaznda, balki bandda va qofiyalanish tizimida ham erkin. Demak, ma'lum bo'layaptiki, erkin she'rning erkinligi faqat vazn bilangina bog'liq emas ekan. Hamonki, shunday ekan, erkin she'rning vazniga alohida e'tibor qaratish shartmikan? Unda sarbastning vaznini nima deymiz? Bizningcha, erkin she'r va sarbastga she'riy shakl sifatida qarab, ularning vaznini murakkab vazn ichida o'rganganimiz ma'qulroq ko'rinadi. Chunki she'rshunoslikdagi erkin vazn, aralash vazn tushunchalarining murakkab vazndan ajratib turadigan katta ritmik xususiyati yo'q. She'rshunoslikka oid kitoblarda nazmiy o'lchovning erkin vazn va aralash vazn turlari ham farqlanadi. Bularning har ikkalasini ham murakkab vaznga kiritsak, to'g'ri bo'ladi, degan fikrdamiz.

Shuningdek, vazn bilan bog'liq yana shunday poetik hodisalar borki, Rauf Parfi she'riyati ham ulardan xoli emas: 1) qo'sh undosh bilan tugagan bir (*umr, qasr, jabr, qabr, xayr, hukm, ufq, she'r, asr, daxl, kibr ajr, hajr, zulm, hayf, mehr, sehr, sabr, aks, dahr, dayr, asl, fasl, harf*), ikki (*front*) va uch (*Manfred*) bo'g'inli so'zlarda vazn taqozosi bilan ikki undosh orasida bir qisqa "i"ning orttirilishi; 2) she'r vazni talabiga ko'ra ba'zi xorijiy so'zlardan biror bo'g'in tushirib qoldirilishi (*matbaachi – matbachi, ayuhannos – ayhannos*) holatlari; 3) barmoqda yozilgan "Hijratda ona allasi" she'rida refren sifatida takrorlarib kelgan "*Nido qildim, nido / lar qildim, alla, // Seni yo'qdan bino / lar qildim, alla*"⁴⁹ misralaridagi "nidolar" va "binolar" so'zlarining vazn talabiga ko'ra aruzdagi kabi ikki qismga bo'linishi; 4) shoir she'rlarida ba'zan vazniy saktaliklarning yuz berishi.

Bobning ikkinchi fasli "**Rauf Parfi she'rlarining ba'zi poetik vositalari**" deb nomlanadi. She'rning poetik hodisa sifatida namoyon bo'lishida ishtirok etgan poetik vositalar she'rshunoslikda, asosan, ikkiga ajratiladi: ko'chim (trop)lar, poetik figuralar. Ko'chimlar ma'noga tegishli bo'lsa, figuralar, asosan, shakl bilan bog'liq. Adabiyotshunos T. Boboyev ko'chimlarni uch turga bo'ladi⁵⁰. Bular: 1) komparativ (o'xshash) troplar (o'xshatish, sifatlash, majoz, metafora, jonlantirish, apostrofa, simvol (ramz), alligoriya); 2) kontigual (qorishiq) troplar (metonimiya,

⁴⁸ Adabiyotshunos N. Shukurovning quyidagi so'zlari ham bizning fikrlarimizni tasdiqlab turibdi: "Erkin vazn terminiga nisbatan erkin she'r termini kengroq tushunchani qamrab olishini nazarda tutish kerak. Erkin vazn termini faqat she'riy misralardagi bo'g'inlar miqdorining mazmun talabiga ko'ra o'zgarib turishini taqozo etuvchi poetik elementni anglatadi. Erkin she'r esa vazn erkinligidan tashqari qofiyalar, qofiyalash, bandlash sistemasidagi erkinliklarni ham qamrab oluvchi tushuncha, aniqrog'i, mana shu elementlarning muayyan erkinliklari asosida vujudga keluvchi she'riy formadir" (*Shukurov Nuriddin. Uslublar va janrlar. – T.: Adabiyot va san'at, 1973. – B. 143*).

⁴⁹ Рауф Парфи. Сайланма. Икки жилдлик, биринчи-жилд. – Т.: Мухаррир, 2022. – Б. 243.

⁵⁰ Бобоев Т. Шеър илми таълими. – Т.: Ўқитувчи, 1996. – Б. 199-235.

mubolag‘a, litota, sinekdoxa, perifraz); 3) kontrast (zidlov) troplar (kinoya, antifraz, sarkazm, oksimoron). Poetik figuralar esa yana shu olimimiz tomonidan “She’riy nutq sintaksisi” sarlavhasi ostida besh turga bo‘lingan⁵¹: 1) *kuchaytiruvchi figuralar* (gradatsiya, ritorik so‘roq, ritorik murojaat, ritorik xitob, badiiy takrorlar (anafora, epifora, refren, halqa, raddau-matla), musoviyat tarafayn, tardu aks, musalsal); 2) pasaytiruvchi figuralar (ellipsis, sukut, bo‘lish, qate’); 3) ohangdosh figuralar (parallelizm, so‘z o‘yini); 4) zidlov figura (antiteza); 5) o‘zgartiruvchi figuralar (inversiya, ko‘chuv, anakoluf). Bulardan tashqari, she’r fonetikasi bilan bog‘liq alliteratsiya va assonans kabi tushunchalar ham borki, bularning barchasi she’rning poetik hodisa bo‘lishini ta’minlashda asosiy “qon tomir”lari bo‘lib hisoblanadi. She’rda ular ifodaning ta’sirchanligi va nutqning emotsionalligini oshirishga xizmat qiladi.

Tabiiy, Rauf Parfi she’riyati ham mana shunday poetik vositalardan xoli emas. Ba’zan ular yakka, ba’zida esa qorishiq holatda keladi. Biz Rauf Parfi she’riyatini kuzatadigan bo‘lsak, juda ko‘p o‘rinlarida bir nechta poetik vositalarni qorishiq holda kelganining guvohi bo‘lamiz.

Shuningdek, Rauf Parfi o‘z she’rlarida **xiazm (tardu aks), metafora, oksimoron, antiteza, perifraz, vazifasini o‘zgartirish, tavtologiya, zulqofiyatayn, tardu aks, poetik parallelizm, anafora** kabi poetik vositalardan unumli foydalandiki, bular o‘quvchiga estetik zavq berishga, qalbini poklashga, tafakkuri va tasavvurida yangi ufqlar ochishga xizmat qiladi.

XULOSA

She’riyat – millatning ruhiy-ma’naviy va hissiy darajasini, kayfiyatini ko‘rsatuvchi o‘ziga xos barometr. Ayniqsa, uning ijodkori hassos, haqparast va nozik qalb shoir bo‘lsa, bemalol uning she’rlari vositasida o‘sha jamiyatga aniq tashxis qo‘yish mumkin. Rauf Parfi yaqin o‘tmishdagi mana shunday shoirlarimizdan biri. Uning she’rlari vositasida biz o‘tgan asrning ikkinchi yarmi, yangi asr boshlarida millat qalbida kechgan tuyg‘ular, iztiroblar, orzular va ularga bog‘liq fojealarni his qilishimiz mumkin. Aslida, bu shoir she’rlariga e’tibor qaratishdan asl maqsad ham shu: uning vositasida millat qalb oynasiga nazar solish, orzu va armonlarini his qilish, dardiga darddosh bo‘lish. Dissertatsiyada, birinchidan, shoir ijodiga aynan shu nuqtai nazardan yondashildi. Ikkinchidan, o‘sha milliy dardni qay usul va qanday badiiy vositalar, qaysi poetik janrlar orqali badiiy tadqiq etdi, shularni o‘rganish edi. Ishda mana shunday maqsadlardan kelib chiqib, Rauf Parfi she’riyatining poetik xususiyatlari tadqiq etildi va quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Rauf Parfining shoir sifatida shakllanishida unga alohida mehr va e’tibor qaratgan ota-onasining, adoqsiz ertaklar aytib, ularni qog‘ozga ko‘chirtirgan ammasi Xosiyat bibining, zamonasining ochiq ko‘zli va uyg‘oq qalbli so‘fiy shoiri Abdurahmon Vodiliyning ulkan xizmatlari bor. Shuningdek, shoir tomirlarida shayx Shomil armiyasiga ko‘ngilli askar bo‘lib ketgan ona tomonidan bir bobosining va mutasavvif shoir Huvoydoga borib ulanadigan ota

⁵¹ Бобоев Т. Шеър илими таълими. – Т.: Ўқитувчи, 1996. – Б. 270-305.

tomon ajdodining qoni oqayotganini ham esdan chiqarmaslik lozim. Chunki bularning barchasi Rauf Parfining shaxs va shoir sifatida shakllanishida alohida o'rni bor.

2. Har qanday ijodkorning biografiyasiga oid ma'lumotlar tartibga solinmas ekan, uning ijodi ustida olib borilgan tadqiqotlar xato xulosalarga olib boraveradi. Adabiyotshunosligimizda Rauf Parfi tarjimai holi bilan bog'liq mana shunday chalkashliklar bor edi. Bular – uning tavalud sanasi, maktabni bitirib, yetuklik attestatini olgan yili, shundan bir yil o'tgach, SAGUning sharqshunoslik fakultetiga hujjat topshirib, o'qishga kirolmagani, faqat shundan keyingina ushbu universitetning filologiya fakulteti kunduzgi talabasi bo'lib, 1965-yilda ushbu fakultetni tugatgani bilan bog'liq muammolarga aniqlik kiritildi.

3. Shoarning hassos qalbi yaydoq cho'ldagi bir butaga ilib qo'yilgan torli cholg'u asbobiga o'xshaydi. U sal epkini "his qiladi" va atrofga ogohlantiruvchi sado taratadi. Haqiqiy shoir ham xuddi shunday: davr "epkin"ini hassoslik bilan qabul qiladi va qalbidan sado qaytaradi. Shoirdagi o'sha sado she'r shaklida dunyoga keladi. Rauf Parfining hassos qalb torlarini qattiq chertgan sovuq epkinlardan biri 1962-yilda Rossiyaning Novocherkassk shaharchasida yuz bergan hodisalar bo'ldi. Shoarning 60-yillarning birinchi yarmida yozilgan "Asrdosh bulbul" va "Qirim xayollari" turkumidagi she'rlari jamiyatda erkinlik yo'qligini, siyosat zulmga asoslanganini, ijodkor bulbulga o'xshab qafasda yashayotganini ko'rsatsa va "Baynalmilal" she'rida bu qattol zamonga muqobil o'laroq shaxs erki va millat mustaqilligi g'oyasini ko'taradi.

4. Har bir inson qalbi bosh barmog'ining izlari kabi betakror. Endi shu qalb uyg'oq, pokiza tuyg'ular maskani va estetik didi baland bo'lsa uning egasi, albatta, ijodkor bo'ladi. Ijodkorga esa hech kimnikiga o'xshamagan o'sha tug'yonli qalbning kechinmalarini oppoq qog'ozga ko'chirish imkoniyati va mas'uliyati mavjud. Uning estetik talabida yana "kuylanmagan bir kuy" istagi bo'lsa, nur ustiga nur. Demak, u birovlarining yo'lidan yurishni istamaydi, o'ziga yangyo'l ochadi. Buning uchun yangi shakliy izlanishlar qilishdan, ijodiy eksperimentlar o'tashdan cho'chimaydi. Shu tariqa u o'ziga yangi ijodiy yo'l ochadi va bu uning qalb ehtiyoji bilan yuzaga chiqadi. Biz Rauf Parfi ijodiy evolyusiyasini kuzatsak, ilk davri aynan shunday kechganining guvohi bo'lamiz. Asqad Muxtorning unga yozgan "oqfotiha"si, shoarning "Karvon yo'li" va "Aks sado" kitoblariga yozilgan taqrizlar Rauf Parfi ijodini o'z davrining adabiy tanqidchiligi iliq kutib olganligiga dalolat qiladi.

5. Rauf Parfining vatan tushunchasi ham o'ziga xos. U vatan deganda Turkistonni tushunadi. Uning dardi parchalangan Turkiston, orzusi esa Turkiston birligiga erishish. R.Parfining 1981-yilda yozilgan "Turkiston yodi" she'ri bilan boshlangan bu mavzu shoir umrining oxiriga qadar davom etdi. Ushbu mavzudagi uning she'rlari, 1982-yilgi Boltiq bo'yi safari, mazkur o'nyillikning ikkinchi yarmida yuz bergan oshkoralik va demokratik siyosat Rauf Parfining 80-yillar ijodida juda katta o'zgarishlar yasaganiga, shoir yuragi tubida tutab yotgan milliy va ijtimoiy-siyosiy tuyg'ularini alangalatib yuborganiga hamda milliy istiqloлга bo'lgan ishonchning qat'iylashishiga olib kelganiga guvohlik beradi.

